

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**RAJABOVA RA'NO ZARIPOVNA**

**O'ZBEK FOLKLORI LIRIK VA PAREMIK  
JANRLARINING YOZMA SHE'RIYATDAGI  
STILIZATSIYASI**

**10.00.02 – O'zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

**UDK: 821 (09) (584.4)**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi (DSc)**

**Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук (DSc)**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philological sciences (DSc)**

**Rajabova Ra'no Zaripovna**

O'zbek folklori lirik va paremik janrlarining yozma she'riyatdagi stilizatsiyasi.....5

**Раджабова Рано Зариповна**

Стилизация лирических и паремических жанров узбекского фольклора в письменной поэзии .....33

**Radzhabova Rano Zaripovna**

Stylization of lyrical and paremic genres of Uzbek folklore in written poetry .....67

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....72

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**RAJABOVA RA'NO ZARIPOVNA**

**O'ZBEK FOLKLORI LIRIK VA PAREMIK  
JANRLARINING YOZMA SHE'RIYATDAGI  
STILIZATSIYASI**

**10.00.02 – O'zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4 DSc/Fil884 raqam bilan ro'yxatga olingan**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati ikki tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**O'rayeva Darmon Saidaxmedovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Sharipova Laylo Frunzeyevna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Hasanov Shavkat Ahadovich**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Achilov Nasim Kamolovich**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil «17» mart soat 9<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel.: +99865221-29-14; faks: +99865221-27-57; ye-mail: rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (831 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel.: +99865221-29-14.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «2» mart da tarqatildi.

(2026-yil 2-mart dagi 3 -raqamli reestr bayonnomasi).



**B.E. Kilichev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Sh.G'. Davronova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc),  
professor

**Z.Q. Amonova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori (DSc), dotsent

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon xalqlari yozma she'riyatida folklordagi lirik va paremik janrlar stilizatsiyasi, ularni qayta ijodiy ishlash keng tarqalgan adabiy hodisalardan biri bo'lib, o'ziga xos ijodiy jarayon sifatida muayyan poetik tadrij, badiiy-estetik tamoyillarga egaligi bilan alohida e'tiborni tortadi. Bunda har bir davr ijodkorining individual uslubiy mahorati ham namoyon bo'ladi. Unga xos poetik xususiyatlarni aniqlash folklor va yozma adabiyot, xalq lirikasi bilan yozma she'riyat munosabatini, janrlar o'rtasidagi o'zaro genetik aloqadorlikni, ijodiy an'analar bardavomligini asoslashda, ijodkorlar mahoratini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida bugungi kunda folklorning an'anaviy janrlariga badiiy-estetik hodisa sifatida yondashib, folklorizmlarni vujudga keltirish, ularning poetik xususiyatlari, yaratilish manbalari, ijtimoiy-psixologik asos va omillari, ijodkor badiiy mahoratini ochishga antropotsentrik, lingvopoetik, etnofolkloristik nuqtayi nazardan alohida diqqat qaratilmoqda. Ayniqsa, folklorning qo'shiq hamda topishmoq, tez aytish, olqish singari qadimiy, an'anaviy janrlarining o'zbek adabiyotini yuksaltirishga ta'sirini, ularni she'riy stilizatsiyalashda shakl, mazmun, motiv, obrazlarini taqlidan yoki ijodiy ta'sirlanish asosida ifodalash usullarini aniqlash she'riyatning badiiy taraqqiyot bosqichlari hamda estetik tamoyillarini, unda shakliy-uslubiy yangilanish ko'rinishlarini oydinlashtirishga xizmat qilishi bilan muhim va dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar sharoitida zamonaviy o'zbek adabiyotining muhim qismi – she'riyatni rivojlantirishda, undagi yangilanish jarayonlari, yetakchi taraqqiyot tamoyillari va badiiy tafakkur hamda ijodiy uslubdagi poetik izlanishlarni o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki “Ayni vaqtda, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san'atni anglashga o'rgatish, ularning estetik olamini sog'lom asosda shakllantirish bo'yicha oldimizda muhim vazifalar turibdi”<sup>1</sup>ki, o'zida g'oyatda chuqur mazmun, maqsad va mohiyatni ifodalovchi bu fikrlar adabiyotshunosligimiz oldida she'riy asarlarning taraqqiyot asoslari, yetakchi xususiyatlari, poetikasini aniqlashga bag'ishlangan tadqiqot ishlarini keng ko'lamda olib borish vazifasi turganligini ko'rsatadi. Shu ehtiyoj sababli xalq lirik va paremik janrlari asosida yaratilgan yozma she'riy asarlar genezisi, ularning badiiy-kompozitsion, uslubiy, lingvopoetik xususiyatlari, ijodkorlarning poetik mahoratini aniqlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi, 2018-yil 1-noyabrdagi PQ-3990-son “Xalqaro

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустақкам пойдеворидир (Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маъруза) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2017 йил, 4 август.

baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi, 2019-yil 23-sentabrdagi PQ-798-son "Respublika baxshichilik san'ati markazi va uning huzuridagi baxshichilik san'atini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.** Badiiy asarlarning badiiy taraqqiyotida folklorning o'rni, folklorizmlar ahamiyati, turlari, jahondagi muayyan ilmiy markaz va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Moskva davlat universiteti, Rossiya davlat gumanitar universiteti, Ufa universiteti (RF), Columbia, Texas, Vashington universitetlari (AQSh), Karabuk universiteti (Turkiya), Ozarbayjon Fanlar akademiyasi Adabiyot instituti (Ozarbayjon), Belorussiya davlat universiteti (Belorussiya), shuningdek, O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Samarqand, Buxoro, Andijon, Qarshi, Urganch davlat universitetlari (O'zbekiston)da ilmiy-amaliy tadqiqotlar yaratilmoqda.

Jahon adabiyotshunosligida folklorning yozma adabiyotga ta'siri bo'yicha folklor va yozma adabiyot namunalari qiyosiy-tipologik tadqiq etilgan (Moskva davlat universiteti, Sank-Peterburg universiteti, Ufa davlat universiteti).

Folklor janrlari stilizatsiyasi, stilizatsion folklorizmlarni o'rganishga oid ilmiy izlanishlar (University of Oxford (Buyuk Britaniya), Grasefield University, Universitat Trier (Germaniya), University of Verona (Italiya), Indiana University, University of California (AQSH), University of Santiago (Chili), La Sierra University (Braziliya), The University of Sydney (Avstraliya), Finish Academy of Science (Finlyandiya), Universitas Tartuensis (Estoniya), Czech Academy of Sciences (Chexiya), European Phraseological Societu, Moskovskiy gosudarstvenniy universitet, Sankt-Peterburgskiy gosudarstvenniy universitet, Moskovskiy gosudarstvenniy lingvisticheskiy universitet, Moskovskiy institut lingvistiki (Rossiya) kabi jahonning yetakchi markazlari va oliy ta'lim muassasalarida olib borilmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida folklor va yozma adabiyot munosabati muammosi bo'yicha hozirga qadar ko'plab ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Bugungi kunda xalq og'zaki ijodi janrlarining, jumladan, lirik va paremik janrlar stilizatsiyasiga aloqador poetik tamoyillar, badiiy-kompozitsion, ritmik xususiyatlarning yozma adabiyotga

---

<sup>2</sup>Диссертация мавзуси бўйича хорижий ва илмий адабиётлар шарҳи <https://www.yorku.ca/>; <https://en.usst.edu.cn/>; <https://www.calstate.edu/>; <https://www.uchicago.edu/>; <https://www.pau.edu.tr/pau/en/>; <https://www.yale.edu/>; <https://www.ox.ac.uk/>; <https://www.monash.edu/>; <https://www.bradford.ac.uk/external/>; <https://www.msu.ru/>; <https://samdchti.uz/ru/>; <https://buxdu.uz/> ва бошқа манбалар асосида амалга оширилди.

ta'siri, uslubiy moslashtirilishi kabi dolzarb yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilayapti.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon adabiyotshunosligida folklor janrlari asosida she'riyatda adabiy janrlar yaratish, ularni stilizatsiya qilish orqali folklor janrlariga xos xususiyatlarni yozma adabiyotga ko'chirish masalalari haqida P.S.Vixodsev, V.B.Agrba, L.P.Bessonova kabi tadqiqotchilarning izlanishlari mavjud<sup>3</sup>.

O'zbek adabiyotshunosligida zamonaviy shoirlarning folklordan foydalanish mahorati xususida N.Karimov, B.Sarimsoqov, G'.Mo'minov, O.Sobirov, I.Yormatov, D.Xoliqova, D.Quvvatova, L.Sharipova A.Turdiyev kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida fikr yuritilgan<sup>4</sup>.

M.Rajabovanning "Alisher Navoiy ijodida folklor janr, motiv va obrazlari stilizatsiyasi" nomli doktorlik tadqiqotida Alisher Navoiy ijodida xalq qo'shiqlari, jumladan, yor-yor (chinka), o'lan, yig'i va yo'qlovlar (marsiyalar), naql, doston, olqish, qarg'ish, maqol, topishmoq (lug'z, muammo) singari janrlar, xalq udum va irim-sirimlari asosida yaratilgan stilizatsion, analitik, sintetik, etnografik folklorizmlar, motiv va obraz stilizatsiyasi masalalariga alohida diqqat qaratilgan<sup>5</sup>.

M.Rahimjonovning "O'zbek mumtoz lirikasida marsiya janri" nomli dissertatsiyasida marsiya janrining yozma turkiy adabiyotda paydo bo'lishi, ildizlari xalq og'zaki ijodidagi yig'ilarga, yig'i-yo'qlovlarga borib bog'lanishi, shakllari, badiiy xususiyatlari jihatidan o'rganilgan<sup>6</sup>.

O'zbek adabiyotshunosligida xalq she'riyati xususiyatlarini yozma ijodga olib kirishdagi badiiy mahorat masalalari bo'yicha ancha izlanishlar olib borilgan bo'lib, ulardan ayrimlarida shoirlarning folklor janrlarini stilizatsiya qilish mahorati

---

<sup>3</sup> Выходцев П.С. Русская советская поэзия и народное творчество. – Л.: Наука, 1963. – 549 с.; Agrba V.B. Абхазская поэзия и устное народное творчество. – Тбилиси: Мецниереба, 1971. – 158 с.; Чистов К.В. Народные традиции и фольклор. – Л.: Наука, 1986; Venetia J. Newall. The Adaptation of Folklore and Tradition (Folklorismus) // journal article. – Vol. 98, No. 2 (1987), pp. 131-151; Вардугина Г.С. Фольклоризм как элемент поэтики А.И.Куприна. Вопросы типологии и эволюции: Автореф. дисс...канд. филол. наук. – Челябинск, 1996. – 22 с.; Бессонова Л.П. Фольклорные тардиции в творчестве А.Т.Твардовского (на примере поэмы "Страна Муравия") // Филологический вестник. – Майкоп: АГУ, 2004. № 6. – С. 108-115; Игонина Н.А. Способы лиризации в малых жанрах русской классической прозы: Автореф. дисс...канд. филол. наук. – Москва, 2011. – 21 с.; Некрылова А.Ф. Фольклор и фольклоризм. Современное понимание. // Труды Санкт-Петербургского государственного института культуры, 2024. – С.16-24.

<sup>4</sup> Каримов Н. Ҳамид Олимжон поэзиясида фольклор традициялари / Ўзбек адабиёти масалалари. – Тошкент: Фан, 1959. – 340 б.; Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологияси масаласига доир / Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. 3-китоб. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 90; Мўминов Ф. Изланишларимдан катталар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2006. – 232 б.; Собиров О. Ўзбек совет адабиётида фольклор ва фольклор аъаналари / Ўзбек совет фольклори масалалари. 1-китоб. – Тошкент, 1970. – Б. 125-143.; o'sha muallif. Ойбек ижодида фольклор. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1975. –104 б.; Ярмагов И. Типология фольклоризмов в современной узбекской литературе (60-е и начало 80-х годов). Автореф. дисс... канд.филол.наук. – Тошкент, 1985. –24 б.; Холиқова Д. Ҳозирги ўзбек шеърисида фольклоризмлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2004. – №4. – Б. 58-61; Қувватова Д.Х. XX аср иккинчи ярми ўзбек дostonчилигининг тараққиёт хусусиятлари: Филол. фан. док-ри дисс. – Тошкент, 2016. – 267 б; Шарипова Л. 80-90 йиллар ўзбек шеърисида фольклоризмлар: Филол.фанлари номзоди.... дисс.– Тошкент, 2009. –154 б.; Sharipova L. She'riyat va folklor. – Toshkent: Navro'z, 2019. – 204 б.; Турдиев А.А. Ўзбек шеърисида фольклор аъаналари ва синкретик ҳолат (Тўра Сулаймон ижоди мисолида): Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Т., 2020. – 149 б.

<sup>5</sup> Ражабова М.Б. Алишер Навоий ижодида фольклор жанр, мотив ва образлари стилизацияси: Филол. фан. док-ри дисс. (DSc). – Бухоро, 2021.

<sup>6</sup> Раҳимжонов М.Н. Ўзбек мумтоз лирикасида марсия жанри: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Т., 2019. – 151 б.

xususida ham fikr-mulohazalar uchrasa-da, biroq bu masala hali yaxlit holda maxsus tadqiq etilmagan. Ushbu dissertatsiya folklorning lirik va paremik janrlarini zamonaviy she'riyatda folklor an'analari doirasida stilizatsiya qilinayotganligini asoslash, bu jarayon bilan bog'liq adabiy-estetik tamoyillarni aniqlashga qaratilganligi bilan avvalgi tadqiqot ishlaridan farq qiladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining 2020-2025-yillarga mo'ljallangan "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari" mavzusidagi tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o'zbek folkloridagi lirik hamda paremik janrlarining yozma adabiyotdagi stilizatsiyasi asosida shakllangan she'riy folklorizmlarning poetik xususiyatlarini, bunda ijodkorlarning shakliy-uslubiy izlanishlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

o'zbek xalq lirik va paremik janrlari stilizatsiyasi asosida shakllangan folklorizm xususiyatlari, ko'lami, ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash;

she'riy va nasriy folklorizmlar tabiatidagi o'ziga xosliklar, ularning yaratilishidagi poetik hamda adabiy-estetik tamoyillarni belgilab ko'rsatish;

o'zbek adabiyotida mavsumiy, to'y va aza kabi maishiy marosimlarga aloqador xalq qo'shiqlari stilizatsiyasi bilan bog'liq badiiy-kompozitsion, lingvopoetik xususiyatlar, ularda an'anaviy motiv hamda obrazlar saqlanishini asoslash;

o'zbek adabiyotida shoir va shoirlar ijodidagi allalar bilan bir qatorda erkak shoirlar ijod qilgan alla haqidagi she'r, doston va hikoyalar badiiyatining o'ziga xosligini ochish;

o'zbek adabiyotida topishmoq, tez aytish va olqishlar stilizatsiyasidagi spetsifik belgilarni dalillash;

ijodkorlarning o'zbek folkloridagi lirik hamda paremik janrlarni stilizatsiya qilishdagi individual poetik mahorati va shakliy-uslubiy izlanishlarini ko'rsatib berish.

**Tadqiqotning** obykti sifatida o'zbek adabiyotida folklorning lirik va paremik janrlari asosida yaratilgan she'riy asarlar tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** o'zbek yozma adabiyotida folklorning lirik hamda paremik janrlari asosida stilizatsiya qilingan she'riy asarlardagi folklorizm tiplari, ularning poetik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiya mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, analitik, etnofolkloristik, lingvofolkloristik, etnolingvistik, sotsiologik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

o'zbek folklorining lirik va paremik janrlari stilizatsiyasi asosida zamonaviy nazmda shakllangan she'riy folklorizmlarning nasriy folklorizmlardan tuzilishi, ohangdorligi, xalqona detal, epizod, motiv va obrazlarni ifodalashdagi badiiy-estetik tamoyillarining o'ziga xosligi, poetik effektivligi asoslangan;

xalq mavsumiy va oilaviy-maishiy marosimlariga aloqador hamda lirik qo‘shiqlar stilizatsiyasining mif-marosim-folklor bosqichidan yozma ijod bosqichiga ko‘chish asoslari, poetik tadriji, ijtimoiy-psixologik omillari, yaratilishiga sabab bo‘lgan zamon va davr voqeliklari badiiy xronotop sifatida aniqlangan;

o‘zbek she‘riyatida bolalarni erkalovchi va ovutuvchi qo‘shiqlar, alla janri stilizatsiyasi, adabiy allalarning xalq allalari bilan mavzuiy va shakliy yaqinligi, poetikasi, ayol hamda erkak shoirlar yaratgan allalarda ijodkor psixologiyasining badiiy-ruhiy ifodasi, ota allalarining folklordagi “huyya”lar bilan genetik aloqadorligi dalillangan;

o‘zbek xalq nikoh to‘yi marosimiga oid yor-yor, kelin salomlar sarlavhasi va ritmik-kompozitsion qurilishi, azaga aloqador yig‘i va yo‘qlovlar stilizatsiyasi asosida “giryra”, “yig‘i”, “elegiya”, “yo‘qlov”, “marsiya”, “bag‘ishlov”, “xotira”, “yodlash”, “eslash” nomi bilan qarindoshlarga atab, shoir va yozuvchilar, davlat arboblari, qatag‘on qurbonlari, Afg‘onistonda shahid bo‘lgan yigitlarga bag‘ishlab yozilgan she‘rlarning lingvopoetik xususiyatlari ochib berilgan;

topishmoq, tez aytish va olqish kabi xalq og‘zaki ijodi janrlarining poetik shakli hamda mazmuniga xos belgilarning davr voqealariga hamohang tarzda qayta ijodiy ishlanishi natijasida hosil bo‘lgan adabiy namunalar an‘anaviylik, individual mahorat, ritm va vazn, tasviriy-uslubiy ifodaviylik nuqtayi nazaridan tekshirilib, folklorning yozma she‘riyat takomiliga ta‘siri isbotlangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

o‘zbek shoirlarining folklordagi she‘riy va paremik janrlarni adabiyashtirish mahorati, bu boradagi shakliy-uslubiy izlanishlari samarasi orqali bugungi adabiy jarayondagi janriy yangilanishlarning xususiyatlari asoslangan;

o‘zbek she‘riyatida folklorga xos qo‘shiq, alla, yor-yor, kelin salom, marsiya, yo‘qlov, topishmoq, tez aytish, olqish kabi janrlarni stilizatsiya qilishning muhim belgilari, ijtimoiy-psixologik asoslari ochib berilgan;

she‘riy stilizatsion folklorizmlar poetik tafakkurni yangilashning yetakchi adabiy-estetik omili ekani, xalq og‘zaki ijodi barcha davrlarda yozma adabiyot rivojida muhim o‘rin tutib kelgani dalillangan;

yo‘zma she‘riyatda uchraydigan xalq qo‘shiqlari va paremikasi shakli, an‘anaviy mavzu, motiv, obraz, ohanglarining yangicha ko‘rinishdagi talqinlari va badiiy-estetik vazifalari aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo‘llanilgan yondashuv usullari va nazariy ma‘lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan materiallarning qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, analitik, etnofolkloristik, lingvofolkloristik, etnolingvistik, sotsiologik tahlil kabi ilmiy metodlar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, adabiyotshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida o‘rganilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati she‘riy folklorizmlarga xos xususiyatlar, ularning nasriy folklorizmlardan farqi aniqlanganligi, og‘zaki va yozma adabiyotdagi janrlarning

mushtarak qirralari, ularning bir-biriga o‘zaro ta’siri, genetik aloqadorligi isbotlanganligi, mavsumiy va maishiy marosim qo‘shiqlari, topishmoq va tez aytish, olqish kabi janrlarning stilizatsiya asosidagi poetik-tadrijiy takomili dalillanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan “O‘zbek folklori”, “O‘zbek adabiyoti”, “Adabiyot nazariyasi” fanlari bo‘yicha maxsus kurslar o‘tishda va ma’ruzalar o‘qishda, adabiyot va folklor fanlaridan dars mashg‘ulotlari olib borishda, o‘quv qo‘llanmalar, darslik, majmualar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbek folklori lirik va paremik janrlarining yozma adabiyotdagi stilizatsiyasini tadqiq qilish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

she’riy folklorizmlarning xususiyatlari, manbalari, nasriy folklorizmlardan farqi, zamonaviy lirikada xalq lirik va paremik janrlarining stilizatsion ko‘rinishlarda an’anaviy shakl va ifoda uslubini, detal yoki epizodlarini, an’anaviy motiv, obraz, ohangning xalqona ruhini aynan yoki qisman saqlash tamoyillari aniqlangan xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturi doirasidagi 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan IL-402104474 “bolalaradabiyoti.uz” elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish” nomli loyihasi doirasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 5-iyuldagi 01/01-2960-son ma’lumotnomasi). Bu esa folkloridagi an’anaviy janr, obraz va motivlarni aniqlashga yordam berishi barobarida folklorning yozma adabiyot taraqqiyotida o‘ziga xos manba ekanligini asoslashga xizmat qilgan;

o‘zbek folkloridagi lirik hamda paremik janrlarining yozma adabiyotdagi stilizatsiyasi asosida shakllangan she’riy folklorizmlarning poetik xususiyatlari, bunda ijodkorlarning shakliy-uslubiy izlanishlari samarasi orqali bugungi adabiy jarayondagi janriy yangilanishlar asoslangan ilmiy xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan “Qoraqalpoq og‘zaki nasri (janrlar tuzilishi, genezisi, obrazlar tizimi, syujet va motivlari, poetikasi)” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (O‘zRFA Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2025-yil 4-iyuldagi №379/2-son ma’lumotnomasi). Natijada folkloridagi she’riy va paremik janrlarni adabiylashtirish, janriy yangilash xususiyatlari asoslangan;

o‘zbek shoirlarining folkloridagi she’riy va paremik janrlarni adabiylashtirish mahorati, bu boradagi shakliy-uslubiy izlanishlari samarasi orqali bugungi adabiy jarayondagi janriy yangilanishlarning xususiyatlari asoslangan ilmiy xulosalardan xalq mavsumiy va oilaviy-maishiy marosimlariga aloqador qo‘shiqlar stilizatsiyasining mif-marosim-folklor bosqichidan yozma ijod bosqichiga ko‘chish asoslari, tadriji, ijtimoiy-psixologik omillari, yaratilishiga sabab bo‘lgan zamon va davr voqeliklari badiiy xronotop sifatida aniqlangan xulosalardan davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2021-2023-yillarda bajarilgan PF-201912258 “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” nomli amaliy loyihada foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va

innovatsiyalar vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 05-iyuldagi 01/01-2959-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek adabiyoti tarixida folklor va yozma adabiyot munosabati an’anaviyligini asoslashda ushbu dissertatsiyadagi ilmiy-nazariy fikrlar muhim ilmiy manba bo‘lgan;

xalq lirik va marosim qo‘shiqlarini davr voqealariga moslab qayta ishlash uchun stilizatsiya qilingani to‘y qo‘shiqlari, shoir va yozuvchilar, davlat arboblari, qatag‘on qurbonlari va Afg‘onistonda shahid bo‘lgan o‘zbek yigitlari o‘limi haqida yozilgan she‘rlar tahlili keltirilgan dissertatsiyasi ishi natijalaridan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo‘limi huzuridagi yosh ijodkorlarning “Nilufar” adabiy to‘garagi mashg‘ulotlarini tashkil qilishda foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo‘limining 11.07.2025. 17-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ular o‘zbek adabiyotining taraqqiyot xususiyatlari, obrazlar tarkibi, unda zamon va inson, shaxs va jamiyat masalalarining uyg‘un holda berilishi dalillangan;

o‘zbek she‘riyatida alla stilizatsiyasi, ularning shoira va shoirlar ijodida uchrashi, adabiy allalar poetikasi, ijodkor psixologiyasining allalardagi ruhiy ifodasi, ularning folklordagi shu janr bilan genetik aloqadorligi, mavzuiy va shakliy yaqinligi qiyosan asoslangan ilmiy qarashlardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasida “Assalom, Buxoro!”, “Dolzarb mavzu”, “Sakkizinchi mo‘jiza” ko‘rsatuvlarining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2025-yil 3-iyuldagi 01-09-157-sonli ma’lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlarning kitobxonlikka qiziqishini oshirishga, folklordagi janrlar bilan genetik aloqador, o‘xshash adabiy hodisalar bo‘yicha ilmiy tasavvur-tushunchalarini boyitishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 12 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 6 ta respublika, 6 ta xorijiy konferensiyalarda qilingan ma’ruzalarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 30 ta ilmiy ish e‘lon qilingan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta, respublika hamda xorijiy jurnallarda 14 ta maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, besh bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 235 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ishning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, metodlari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot

natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, aprobativasi, joriylanishi, e'lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **birinchi bobi** "**O'zbek xalq lirik va paremik janrlari asosida shakllangan folklorizmlarning xususiyatlari**" deb nomlangan bo'lib, ikki fasldan tarkib topgan. Uning ilk fasli "**O'zbek nazmida xalq lirik va peremik janrlari stilizatsiyasi asosidagi she'riy folklorizmlar**" deb yuritiladi. Yozma adabiyotda folklor janrlarini o'zlashtirib, ular asosida yangi bir asar yaratish o'ziga xos keng tarqalgan ijodiy jarayonlardan biridir. Ba'zan bu holat adabiy ta'sir samarasi sifatida ham izohlanadi. Darhaqiqat, folklor hamma davrlarda yozma adabiyot badiiy takomilining asosiy vositasi, muhim omillaridan biri bo'lib kelgan.

Yozma adabiyotda doston, ertak, naql (masal bo'lib), afsona, rivoyat, qo'shiq, yor-yor, kelin salom, yig'i va yo'qlovlar (marsiya), alla, topishmoq, tez aytish, olqish, hukmlagich, erkalama, ovutmachiq singari folklorning qator janrlari stilizatsiyasi kuzatiladi. Folklorizm paydo bo'lishining asosiy omillaridan biri, bizningcha, yuqorida nomi ko'rsatilgan xalq og'zaki ijodi namunalarining aynan o'zi yoki ularga aloqador qaysi bir elementning o'zgartirilgan yoxud o'zgartirilmagan holda keltirilishi, ko'pincha ularni qayta ishlash, o'sha uslubda tafakkur qilish, voqelikni ifodalash mahoratidir.

Ijodkor bevosita yoki bilvosita biror-bir folklor materialidan ijodiy foydalanib, uning janri, yetakchi motivi va obrazlari, ohangiga tayanib, o'z fikr-g'oyalarini ilgari surishi, uni o'z yashash sharoiti, turmush tarzi, e'tiqodiy tushunchalari orqali qabul qilishi va badiiy ifodalashi, shularga moslashtirishi yoinki xohishi va poetik didiga ko'ra qayta ishlashi natijasida folklorizm vujudga keladi. Shu tariqa har bir ijodkorning folklorizmi shakllanib, uning individual poetik mahoratini namoyon etadi.

Adabiyotning barcha turlaridagi kabi she'riyatda ham folklor janrlarini yoki ularga xos elementlarni turli maqsadlar bilan qo'llashgan. Shoirlar ularni o'z niyatiga bo'ysundirib, yaratayotgan asarining umumiy funksional yo'nalishini namoyon etadilar.

Folklorning eng ommaviy, qadimiy va an'anaviy janrlaridan bo'lgan qo'shiq, alla, yor-yor, kelin salom, yig'i, yo'qlov va boshqa shu kabi xalq orasida keng tarqalgan janrlarning yozma ko'rinishda qayta yaratilishi, individual ijod uslubiga moslashtirilishi adabiyot ilmidagi "stilizatsion folklorizm" deb ko'rsatiladi. Lekin ular ba'zan "transformatsion folklorizm" sifatida qaralishiga ham guvoh bo'lish mumkin. Chunki bunda janr nomi asarda sarlavha sifatida aynan saqlanishi yoki saqlanmagan bo'lishi, boshqa nom ostida folklor janrining xususiyatlariga yondashilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Ijodkorning folklorga xos shakl va mazmun, tasvirlar semantikasini o'z davri voqealariga moslab o'zgartirib tasvirlash mahorati uning ratsionalligini ham namoyon etadi. Chunki ijodkorlar borliq va shaxs bog'liqligi, o'zaro munosabati bilan bog'liq konseptual qarashlarni ochish uchun folklor janrlariga yoki undagi an'anaviy obraz va motivlarga yondashishi ko'p kuzatiladigan adabiy jarayonlardan biridir. Bunda ularni o'z davri voqeliklariga moslab tanlash ijodkor topqirligi, hozirjavobligi va uslubiy mahoratidan dalolat beradi.

Stilizatsiya qilingan janr ko'rinishini deyarli o'zgartirmaydi. Aytaylik, alla allaligicha yoki erkalama, ovutmachiq kabilar o'z shaklini, ifoda uslubini, ohangini,

ijro o‘rni va xususiyatlarini deyarli saqlab qoladi. Sababi, ijodkor ularga xos bo‘lgan eng muhim janriy xususiyatni, masalan, allani alla qiladigan “alla” takrorini, so‘zsiz, saqlaydi. Lekin, nikoh to‘yida shoirlar yaratgan kelin salom yoki yor-yor emas, baribir xalq kelin salom va yor-yor qo‘shiqlari ijro qilinadi. Bunda adabiy yor-yorning poetik vazifasi folklordagidek kelinchakni kuyov xonadoniga uzatib borish, kelinsalomniki kelinni kuyov yaqinlari bilan tanishtirish, allaniki bolani uxlatish emas, balki xalq orasida an’anaga, milliy qadriyatga aylangan ushbu qo‘shiqlarni ta’riflash va tavsiflashdan iboratligi ko‘rinadi.

Folklorizmlarda voqelik qaysi yo‘lda ifodalanganiga qarab ikki xil folklorizm tipi o‘zaro farqlanadi. Bular: 1. Nasriy folklorizmlar. Nasriy turda yozilgan asarlarga xosdir. 2. She’riy folklorizmlar. Nazmiy (lirik) turda yaratilgan asarlarga aloqadordir. She’riy folklorizmlar ikki xil ko‘rinishda uchraydi: 1. Xalq nomarosimiy lirikasi ta’sirida. (Maishiy va lirik to‘rtliklar, aytishuvlar asosida). 2. Xalq marosimlari lirik janrlari ta’sirida. Bular to‘y, aza yoki tabiat marosimlari qo‘shiqlari asosida yozilgan she’rlar misolida ko‘rinadi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli **“Xalq qo‘shiqlari shakli, mazmuni va ohangida yaratilgan she’rlar dizayni”** deb sarlavhalangan. Dizayn, andaza, nusxa olish, olingan andazada yangi dizayn yaratish kabi tushunchalar, odatda, tikuvchilikda ishlatiladi. Lekin bu tushunchalarni biror ijodkorning xalq aytimlaridan nusxa olib, o‘sha andazaga solib, yangi matn yaratish tajribasiga nisbatan qo‘llasa ham bo‘ladi, deb hisoblaymiz.

Ma’lumki, L. Sharipova she’riyatda folklorizmlar mavzusidagi tadqiqotida stilizatsion folklorizmlar janr, motiv, obraz va ohang stilizatsiya qilinishiga ko‘ra to‘rt turga bo‘linishini ko‘rsatib o‘tgan edi va ularning har birini XX asrning 70-80-yillar she’riyati misolida dalillagandi<sup>7</sup>. Olima bunda xalq qo‘shiqlariga yondashib yozilgan she’rlarni ohang stilizatsiyasi namunalari sifatida qayd etadi. Darhaqiqat, o‘zbek she’riyatida “Qadimiy ohanglarda”, “Xalq ohanglarida”, “Xalq yo‘lida” degan maxsus izoh ostida yaratilgan bir qancha she’rlar uchraydi va ular o‘ziga xosligi bilan alohida ajralib turadi. Shu o‘rinda bevosita Oydin Hojiyevaning “Xalq yo‘lida”, “Xalq ohanglarida” sarlavhasi bilan yaratilgan ikkita she’ri darhol yodga keladi. Shoira “Xalq yo‘lida” sarlavhali she’rini xuddi qizaloqlarning “Sandiqchayu quticha” nomli o‘yin-qo‘shig‘iga taqlidan yozgani seziladi, ammo shoira o‘z she’rida sal o‘zgatirish bilan “Sandiqchayu kursicha”<sup>8</sup> misrasini qo‘llagan:

Ijodkori	Janri	She’riy matn sarlavhasi va boshlanma bayti	Hajmi	Sandiqchadagi narsa nima?
Xalq	Qo‘shiq	Sandiqchayu quticha. Sandiqchayu quticha, Man duxtari kelincha.	15 misra	Tillo-bodom
Shoira O. Hojiyeva	She’r	Xalq yo‘lida. Sandiqchayu kursicha, Kursichada musicha...	15 misra	Oq ro‘mol, Oq marjon, Bir qiz

Ko‘rinayaptiki, haqiqatan ham, shoira o‘z she’rini xalq yo‘lida yozgan. Buni, avvalo, har ikkala matnda sandiqcha haqida so‘z yuritilayotganidan darhol ilg‘asa

<sup>7</sup> Шарипова Л.Ф. 80-90-йиллар ўзбек шеърлятида фольклоризмлар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 140 б.

<sup>8</sup> Ойдин Ҳожиёва. Шом шуълалари: Сайланма. Шеърлар, дostonлар, қасидалар. – Т.: Шарқ, 2010. – Б.113.

bo'ladi. Faqatgina shoira "quticha" o'rnida "kursicha" obrazini qo'llagan. Qo'shiq ham, she'r ham kelin bo'ladigan qiz haqidadir. Chunki urf-odatimizga binoan kelinchakka sandiq qilinadi. Uning ichiga esa, albatta, kelinchakka atalgan oq ro'mol – baxt ro'moli solinadi. Yana unda "serfarzand bo'lsin" degan ezgu niyat bilan kuyov tomonidan oq marjon solib jo'natiladi. Mana shularning bari she'rda birma-bir qayd etib borilgan.

Oydin Hojiyevaning "Xalq ohanglarida" sarlavhali she'rida esa qizning sevgan yigitiga o'z ichki tug'yonlarini ochiq-oshkora aytolmay, andisha bilan pinhona izhor etishi namoyon etilgan.

Oydin Hojiyeva she'ri	Xalq to'rtlik qo'shig'i
Ariq labinda shivit, Shivitni suvga ivit! Biz tanlagan akam-o Qarqaradek bir yigit!	Ariq bo'yida shivit, Shivitni suvga ivit! Qiz bola kasal bo'lsa, Uning davosi yigit!

Ko'rinadiki, keltirilgan to'rtliklarning har ikkalasi bir xil boshlanmaga ega. Ikkinchi misra hech o'zgarishsiz keltirilgan. Xalq qo'shig'ida ham, shoira she'rida ham sevib qolgan qiz dardi haqida so'z yuritilgan. Har ikkala she'riy matn bir xilda barmoq vaznida, 7 hijoli, 5+2 ritmik bo'linishga ega turoqlanish tartibida, chigit / shivit / yigit so'zlarini o'zaro qofiyalantirish asosida yaratilgan. Shoira Oydin Hojiyeva she'rini davom ettirar ekan, uning o'rtasidagi bandlar orasida xalq o'shiqlariga xos "Ho layliyu, ho layli" lirik takroridan foydalangan. She'ning oxirgi bandi ham xalq qo'shiqlari ohangida bitilgan.

Muhammad Rahmon, Yahyo Tog'a, Eshqobil Shukur ijodida ham aynan "Xalq ohanglarida" nomi bilan yozilgan she'rlarni uchratamiz. Muhammad Yusufning "Qo'shiq" nomli she'ri xalqning "Olma pishganda keling", "Nima-nima deysiz?" kabi mashhur qo'shiqlariga bog'lab, tazmin qilib yozilgani uchun unga nisbatan "qo'shiq" atamasi sarlavha sifatida qo'llangan. Shuningdek, Saida Zunnunovaning "Qo'shiq" sarlavhali she'ri<sup>9</sup> xalq qo'shig'idagi quyidagi misralarni asos qilgan holda yaratilgan:

Xalqda	Saida Zunnunovada
Daryolarning ul yuzida uylaringiz, Oqarishib ko'rinadi bo'ylaringiz.	Daryolarning ul yuzida uylaringiz, Olislardan eshitar kuylaringiz.

Ushbu she'rda xalq lirik qo'shiqlarida eng ko'p qo'llanadigan daryo, qush, shamol, suv bo'yi, soch, yo'l, gul kabi an'anaviy poetik obrazlardan foydalanib, uning mazmunini ham xalq ideallariga yaqinlashtirgan. Yoki shoiraning "Yor keladi" nomli she'ri haqida ham shunday fikrlarni aytish mumkin.

Muhammad Ali o'zining "Ko'nglim guli" she'rini "(Xalq qo'shiqlari usulida)" deb ko'rsatgan. Omon Muxtor ijodida ham xalq ohangida yaratilgan "Hayot", "Yo'l bo'yidagi daraxt", "Shikoyat" sarlavhali bir necha she'rlari mavjud. Ulug'bek Hamdamning "Yorijon" she'ri xalq nazmi an'analari bilan bog'liqlikda yaratilgani ijodkorning bevosita o'zi e'tirof qilib o'tgan. Muhammad Ali "Nasibaning qo'shig'i" deb sarlavhalagan she'ri o'zbek qizaloqlarining "Ha-yu, chittigul!" o'yin-

<sup>9</sup> Саида Зуннунова. Нилуфар. Шеърлар. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.166.

qo‘shig‘i takrori va ritmidan foydalanib yozilgan. Sadridin Salim Buxoriyning “Eski buxoro xalq qo‘shig‘i” she‘ri nomidanoq ko‘rinib turibdiki, xalq qo‘shig‘i ohangida yaratilgan. Shoir ushbu she‘rida keltirilgan ikki bandni hamda uning yakunini “Lala-lum, e voy!” takrorini ikki martadan qo‘llash orqali bog‘lagan. O.Safarov “Mavrigi” (Turkumdan). “Shikan-shikan” qo‘shig‘i deb atagan she‘riga “Ey yor, omon-ye, omon-ye, omon-ye, omon!..” misrasidan boshlovchi misra o‘rnida foydalangan.

Dissertatsiyaning **ikkinchi bobi “O‘zbek she‘riyatida allalar stilizatsiyasi”** deb nomlangan bo‘lib, uch fasldan tarkib topgan. Uning ilk fasli **“Shoiralar ijodida allalar poetikasi”** nomini olgan. O‘zbek adabiyotida, xususan, she‘riyatida “alla” nomi bilan yaratilgan qator asarlar va she‘rlar mavjud. Adabiyotshunos S. Mamajonov yozganidek: “Xalq ijodi yozuvchilar uchun xalq tarixini, kurashini, uning maqsad va ideallarini, ruhi, ongi, psixologiyasi va xarakterini, uning boy tilini o‘rganish manbai bo‘lmoqda; xalq bilan, hayot va zamon bilan uzviy bog‘lanishda ma‘lum ma‘noda g‘oyaviy-estetik ko‘priklardan biri bo‘lib xizmat etmoqda”<sup>10</sup>. Darhaqiqat, folklor ta‘sirida o‘zbek bolalar adabiyoti yanada mazmunan teranlashib, janriy jihatdan boyib, hayotiy ta‘sirchanligi ortib bormoqda. Bu jarayonni chuqur va har taraflama o‘rganish esa uning kamolot ufqlarini aniqlash uchun muhim hisoblanadi.

Bolalar adabiyotida bolalar folklorining eng keng tarqalgan janrlaridan biri allaning stilizatsiyasi ancha kuchli. Saida Zunnunova tomonidan stilizatsiya qilib yozilgan bir necha “Alla” nomli she‘rlar mavjud. Uning shunday allalaridan birida har to‘rtlik banddan so‘ng xalq allalari kabi refren ko‘rinishidagi “Uxla, yulduzim, alla” yoki “Uxla, qunduzim, alla”<sup>11</sup> satri saqlangan. Shoira tarjimayi holidan bilamizki, uning yolg‘izgina qiz farzandi bo‘lgan. Ehtimol, shuning uchundir shoira bolasi ko‘p bo‘lishini, ular qoshida ko‘proq alla kuylashni ich-ichidan istagan. Buni esa uning ijodida bir emas, bir necha adabiy allalar yaratilganiga qarab ham his etsa bo‘ladi.

Oydin Hojiyeva “Alla” sarlavhali she‘rini “Xalq ohangida” degan yozuv bilan maxsus ajratib ko‘rsatgan. Darhaqiqat, she‘r xalq allalari ohangida yaratilgan.

Ma‘lumki, allalar bitta bolaga yoki egizak bolalarga aytilishi jihatidan mazmunan farq qiladi. Shoira Gulchehra Jo‘rayevaning ijodida aynan egizak bolalar – Hasan va Husanga bag‘ishlangan “Alla” nomli she‘r uchraydi<sup>12</sup>.

Dilorom Karimovaning “Rustamga alla” she‘rining ostida qavs ichida “(hazil)” degan izoh keltirilgan. Sababi shundaki, she‘r beshikda yotgan chaqaloq Rustamning talaba onasini intizorlik bilan ochqab kutayotgani bayoni bilan boshlanadi. Allaning so‘nggi satrlari olqishga yo‘g‘rilgani bilan e‘tiborga molik. Unda buvijon shirin nevarasining tezroq ulg‘ayishini tilab, duo aytadi.

Adabiy allalar poetik jihatdan ham, onalarning ichki tuyg‘ulari bayoni sifatida badiiy ijodining bo‘lak turlaridan ajralib turadi. Allalar bola xotirjam bo‘lib, orom olib uxlashiga imkon beradi.

<sup>10</sup>Мамажонов С. Шоир дунёси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1974. – Б.143.

<sup>11</sup> Зуннунова Саида. Нилуфар. Шеърлар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.200.

<sup>12</sup> Жўраева Гулчеҳра. Йилларим – йўлларим. Шеърлар ва достон. – Тошкент: Фафур Фулом. – Б.45-46. (167 б.)

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli *“Shoirlar ijodida allalar shakli va mazmuni”* deb nomlangan. Allalar, odatda, ayollar ijodida uchraydi va bolani uxlatish uchun onalar yoki buvilar, ba’zan otalar, opa yo akalar tomonidan kuylanadi. Demak, allalarni erkaklar ham aytishi mumkin. Bunday allalar haqida birinchi bo‘lib G‘ozi Olim Yunusov 1926-yilda *“Maorif va o‘qitg‘uvchi”* jurnalidagi maqolasi orqali ma’lumot bergan hamda ularning xalq orasida *“huyyalar”* deb yuritilishini bildirib o‘tgan. Yoki Buxoro-Navoiy hududidagi qoraqalpoq jirovlarining repertuarida allaga o‘xshash, tarixiy to‘lg‘ovga qiyoslanadigan termish degan janr mavjud<sup>13</sup>.

Anglashilmoqdaki, alla janri stilizatsiyasi nafaqat ayol, balki erkak shoirlar ijodida ham kuzatiladi. Masalan, Zafar Diyorning *“Ona allasi”* qo‘shig‘ini bu o‘rinda misol keltirish mumkin. Yana Safo Ochil qalamiga mansub alla matni ham bor. Sadridin Salim Buxoriy ijodiy merosida uchraydigan *“Sitorabonu allasi”* nomli she’rda *“allayo-alla”* takrori har bir satr oxirida takroran keltirilgani ko‘rinadi. Ushbu alla xalq allalari kabi olqish ruhida yaratilgan bo‘lib, sarlavhasidan u go‘yo qiz bola Sitorabonuga bag‘ishlanganday, ammo matn bilan tanishgach, uning Sitorabonu tomonidan o‘g‘liga kuylanayotgani anglashiladi. Shoir tomonidan u *“Ibn Sinoga”* deb ko‘rsatilgan.

Bola bor joyda alla aytilishi dunyo xalqlari urf-odatiga xosdir. Shuning uchun Toshpo‘lat Ahmad *“Asemgul opaning allasi”* sarlavhali she’rida *“Gazlida zilzila davom etayotganda Asemgul Ismambetova oilasida farzand dunyoga keldi. Uni ezgu niyat bilan Omongul deb atadi”* deya o‘sha yerda istiqomat qilayotgan qozoq ayoli tilidan kuylangan alla matnini o‘quvchilar e’tiboriga havola qiladi.

Qiz bolalar o‘yin faoliyatida qo‘g‘irchoq o‘ynash va ularga alla aytish holati ko‘p kuzatiladi. Shu holatni e’tiborga olib, ba’zi bolalar shoirlari inson, ayiq siymolaridagi qo‘g‘irchoqlarga aytiladigan alla matnlarini yaratgan. Bunga bolalar shoiri Nabijon Ermatning *“Ayiqbeka allasi”* she’rini misol keltirish mumkin.

Barcha *“Alla”* sarlavhali she’rlarda alla so‘zining takrori uchrayvermaydi. Ularning sarlavhasi va uxlatishga qaratilgan mazmunidagina alla matni ekanligini anglash mumkin. Bunga H.Imomberdiyevning *“Alla”* she’ri misol bo‘la oladi.

Rauf Parfi ijodida ham alla stilizatsiyasi kuzatiladi. Bunga shoirning *“Hijratda ona allasi”* she’ri misol bo‘ladi. Unda shoir xalq allalari va lirik qo‘shiqdarida uchraydigan *“nido qildim, nido qildim”* jumalari bilan boshlanadigan quyidagi alla baytini takror qo‘llagan.

Nido qildim, nidolar qildim, alla,  
Seni yo‘qdan binolar qildim alla<sup>14</sup>.

Muhammad Yusufning *“Halima enam allalari”* doston janrida yozilgan bo‘lib, unda yurt himoyachilari sifatida jonini qurbon qilgan yigitlarga nisbatan aytilgan yo‘qlov-alla o‘z ifodasini topgan. Qizig‘i shundaki, ushbu doston adabiyotshunosligimizda bir necha bor tahlilga tortilgan, ammo uning alla-yo‘qlov xarakteridagi doston ekani aytilmagan. Shuni inobatga olib, biz uni ilk bor shunday janr doirasida tahlilga tortishni lozim ko‘rdik. Negaki, dostonda shu yo‘lda umri xazon bo‘lgan er-yigitlarning ona yerni quchoqlab shod uxlashi” tasvirlangan.

<sup>13</sup> Эмирлан С. Алалай менен Булалай (термишлер). – Нөкис: Avangard-baspa, 2021. – Б. 2.

<sup>14</sup> Парфи Рауф. Хотирот. – Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – Б.52-53.

Doston tarkibidan o‘rin olgan ayrim bandlar bevosita yig‘i-yo‘qlovlar stilizatsiyasini namoyon etadi. Unda onaizorning urushda o‘lgan farzandini qo‘msab chekkan nolalari ko‘rinadi.

Erkak shoirlar ijodidagi ayrim allalar yuqoridagi kabi onalar tilidan aytilgani ko‘rsatib o‘tilgan. Bunga Muhammad Yusufning “Halima enam allalari” dostonidan tashqari Iqbol Mirzoning “Mo‘tabarxon ayaning allasi” she‘rini misol qilish mumkin. She‘r go‘daklarga isiriq tutatish paytida ijro qilinadigan “isiriq solish olqishi” bilan boshlangan:

Iqbol Mirzoda	Xalqda
Chatnab-chatnab tutar isiriq, Patlab-patlab tutar isiriq. Beshigingni tumanday burkab, Pastlab-pastlab tutar isiriq.	Chatnasin isiriq, Patlasin isiriq. Shu bachamni ko‘zlardan Asrasin isiriq.

Demak, shoir go‘daklarga isiriq tutatganda aytiladigan aytimlar bolalar folklorida alohida janr ekanini biladi. Shuning uchun u bu misralarda alla janriga xos muhim belgi – “alla” takrorini qo‘llamagan. Shundan keyingi misralarning har birida bu takrori qo‘llab, alla janri stilizatsiyasini amalga oshirgan.

Shoir bu she‘r mazmunida ko‘z-suqni haydash maqsadida aytiladigan “kinna” aytimiga aloqador shakl va ma‘nodan ham mahorat bilan foydalangan:

Iqbol Mirzoda	Xalqda
Kinnayu suq, oyga bor, oyga, Toshi quruq soyga bor, soyga. Sandiq quchib uxolmay yotgan Sandiqqorin boyga bor, boyga.	Gijinglagan toyga bor, Sharqirab oqqan soyga bor. Qorni katta boylarga bor, Mani bachamda nima gap bor.

Shoir kinnani haydash obyekt sifatida oy, soy, boyni aytayotgan bo‘lsa, xalqda bunday obyekt tarzida toy, soy, boy ko‘rsatilmoqda. Ular deyarli farqsiz.

Mirzo Boboqand ijodidagi “Onam allasi” she‘ri jami 20 misra, ya‘ni har bandi to‘rt misradan iborat besh banddan tuzilgan bo‘lib, uning hech bir misrasida “alla” takrori qo‘llanmagan. Shu boisdan uni alla stilizatsiyasiga aloqador deb emas, “ona allasi” haqidagi she‘r deb qarash lozim. Negaki, stilizatsiya qilinganda allaning mazmuni (bolani uxlatish paytida kuylanishi), ohangi (orombaxsh, tinch, sokin ritmi), shakli (misralar soxirida “alla” takrorining keltirilishi) asos qilib olinadi. Mirzo Boboqandning “Onam allasi” she‘rida esa bularning hech biri ko‘zga tashlanmaydi. Unda faqat ona allasining hayotiy ahamiyatini qayd etish maqsadi ko‘zda tutilgan.

Muhammad Alining “Ona yer allasi” onaning bolasiga emas, balki ona yerning qahramon o‘g‘longa xalq nomidan aytilgan allasi ekani bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Bu alla motam allalari shakli va uslubida yaratilgan.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli **“Bolalarni erkalovchi va ovutuvchi qo‘shiqlar stilizatsiyasi”** deb nomlangan. O‘zbek she‘riyatida an‘naviy bolalar folkloriga oid janrlarning ham yozma namunalari yaratildi. Ayniqsa, XX asr o‘rtalaridan hozirgacha bolalar uchun mo‘ljallangan erkalama, ovutmachiq, qiziqmashoqlar, yalinchoq va hukmlagichlarning stilizatsiyasi kuchaydi va ular asosida yozma xarakterdagi bunday she‘rlar adabiy janrga aylana boshlandi. Shoirlar tomonidan zamonaviy mavzulardagi bolalarni erkalovchi va ovutuvchi she‘rlar yaratila

boshlandi. Muallifli erkalama, ovutmachiq, qiziqmachiq va boshqalar paydo bo‘ldi. Bu esa folklor va yozma adabiyot munosbatining yangi pog‘onaga ko‘tarilganligidan dalolat beradi.

Bolalar folklori va adabiyoti bo‘yicha taniqli olim O.Safarovning bolajonlarga atalgan she‘r-u ertaklari ham mavjud bo‘lib, ular orasida xalqning kichkintoylarni erkalash maqsadida yaratilgan qo‘shiqlari ta‘sirida yaratilgan “Erkalamalar” nomli she‘rlari alohida turkumni tashkil qilgan.

Ulug‘bek Hamdam she‘rlari orasida “Qizimga” she‘ri ovutmachiq stilizatsiyasiga asoslangani bilan ajralib turadi. Bu she‘r xuddi xalq ovutmachiq qo‘shiqlari kabi bolaga “yig‘lamagin” degan murojaat bilan boshlangan.

Yig‘lamagin, jon qizim,  
Seni yaxshi ko‘raman.  
Uzoq ketsam, nur bo‘lib  
Sochlaringni o‘raman...<sup>15</sup>

Odatda, ovutmachiqalarda yig‘lab turgan bolani chalg‘itib ovutish motivi yetakchilik qiladi. Shuni e‘tiborga olib, she‘rda shoir qiziga kutilmaganda uning ayasi va akasini, butun oilasini yaxshi ko‘rishini so‘zlashga tushadi. Shundan so‘ng yana u asosiy maqsad – qizini yig‘idan to‘xtatib ovutishga o‘tadi.

Saida Zunnunovanning “Oymomomon, oymomomon” sarlavhali she‘ri xalq ijodida uchraydigan Oy haqidagi yalinchoqni eslatadi. U bevosita oymomoga murojaat qilish motivi bilan boshlangan. Bu she‘rda oy haqidagi xalq yalinchoq‘i uslubini saqlab, bola va oy suhbatini keltirgani kuzatiladi. Eng muhimi, shoir bunda oying bolaga kulcha berish motivini ham saqlagani ko‘rinadi.

Dissertatsiyaning **uchinchi bobi** “**Mavsumiy va to‘y marosim qo‘shiqlari stilizatsiyasi**” deb nomlangan bo‘lib, ilk fasli “**Mavsumiy xalq qo‘shiqlari stilizatsiyasi**” deb atalgan. Xalqimiz orasida mavsumiy (yil fasllari yoki ma‘lum bir vaqt bilan bog‘liq) marosimlar hamda ularga aloqador qo‘shiqlar keng tarqalgan. Ularning aksariyati xalqimizning yashash hududining iqlim sharoiti, mehnat tarzi, madaniy hayoti bilan bog‘lanadi. Jumladan, bahorgi, yozgi, kuzgi va qishki mavsumlarga aloqador marosimlar folklori ham borki, ular bilan bog‘liq “Boychechak”, “Navro‘z”, “Sumalak sayli”, shamol chaqirish qo‘shig‘i “Yo Haydar”, “Qor xat yozish” udumlari talqini ifoda topgan she‘rlar yozma adabiyotda ham uchraydi. Fikrimiz dalili sifatida bu o‘rinda Sadriddin Salim Buxoriyning quyidagi satrlariga murojaat qilish mumkin:

“Kokilingni qimirlat, Haydar!  
Bolangni suv eltmoqda, Haydar!  
Seni uyqu eltmoqda, Haydar!”  
Bobo tongdan bug‘doy shopirar.

Boshqa qadimgi turkiy xalqlar kabi xalqimiz azaldan Haydar kultiga shamol piri sifatida sig‘inib kelgan. Ekinlarni sovurish uchun shamol bo‘lmasa, uni chaqirish uchun “Yo Haydar” marosimi o‘tkazilgan va shu jarayonda Haydar nomiga murojaat qilinib,

<sup>15</sup> Улуғбек Ҳамдам. Эски дунё ва янги мен: сайланма. – Т.: Янги аср авлоди, 2018. – Б.61.

maxsus marosimiy qo‘shiqlar ijro etilgan<sup>16</sup>. Shuning uchun “Yo Haydar” kuzgi mavsumiy marosim sanaladi.

Mirtemirning “Suhbat” she‘rida<sup>17</sup> ham shamol chaqirish qo‘shig‘ining bosh qahramoni – Haydar nomiga murojaat qilish motivi hamda shu qo‘shiq ohangiga taqlid qilish (ya’ni stilizatsiyalash) holati kuzatiladi.

Xalq taqvimida Ramazon va Qurbon hayitlarining ham alohida o‘rni bor. Ular bilan bog‘liq qo‘shiqlar faqat xalq og‘zaki ijodidagina emas, yozma she‘riyatda ham mavjudligi kuzatiladi. Bunga shoir Mirzo Boboqandning “Mohiramazon” sarlavhali she‘rini<sup>18</sup> misol bo‘lib, u ko‘kdan nozil bo‘lgan Qur‘oni Karim, farzand qulog‘iga aytilgan azon, “Alhamdulillah robbil a‘lamin” mustajob duo kabi Mohiramazonning qadri balandligini ta‘riflovchi misralar bilan boshlangan. Shundan so‘ng ro‘za tutmoqlik hikmati va himmati tavsiflangan.

Sirojiddin Sayyidning “Hayit g‘azali” ham bunga misol bo‘la oladi. Xuddi xalq hayit qo‘shiqlari singari bu g‘azalning mazmuni katta-yu kichikni, qarindoshu begonani – barcha mo‘min-musulmonlarni qutlug‘ Hayit bayrami bilan tabriklash uchun yozilgan.<sup>19</sup> Aruzda yozilgan bu g‘azal misralaridagi qofiyalardan so‘ng “muborak et” radifi keltirilgan. So‘nggi baytda shoir taxallusi ham berilgan. Xalq tilida hayit “iyd” deb ham yuritiladiki, shoir bunga-da e‘tiborni tortgan.

Xalq hayit yo‘qlovlari ko‘proq ayollar tomonidan kuylanadi. Ammo yozma she‘riyatda bunday hayit yo‘qlovlarning erkak shoirlar tomonidan yaratilgani kuzatildi. Bunga shoir Mirzohid Botirovning “Yig‘ladim men onam-a! (rahmatligim, Hayit bayramingiz muborak!) she‘rini misol qilish mumkin. U aynan mana shu mavsumiy an‘ana bilan bog‘liqligi jihatidan e‘tiborga molik.

Xalqimiz og‘zaki poetik ijodi qatlamlarida boychechak haqida yaratilgan bir qator qo‘shiqlar tizimi mavjudki, ular mavsum-marosim qo‘shiqlari sirasiga kiritiladi. U haqdagi yozma she‘riy namunalar shoirlar ijodida mavjud bo‘lib, ba‘zilari kattalar, ba‘zilari bolalar uchun yaratilganiga guvoh bo‘lish mumkin. Shunday she‘rlardan biri Cho‘lponning “Boychechak” she‘ridir. Uning har bandi boshlanishida keltirilgan “Boychechakning bolasi” birikmasi qo‘shirnoqqa olinayotgani bejiz emas, chunki shoir uni bevosita boychechak haqidagi xalq qo‘shiqlaridan olgan. She‘rdagi “Go‘daklarning xaltasi non bilan to‘ldi!” satri vositasida esa, birinchidan, boychechak ulashib yurgan bolalarga xonadon egalarining nonmi, boshqa shirinliklarni ulashishidan iborat odatga, ikkinchidan, yurtda kechayotgan ocharchilikka ishora qilayotganini anglash mumkin.

Umuman aytganda, “Boychechak” qo‘shig‘i yozma adabiyotga ko‘p bora ko‘chirilgan. Buning dalilini Shukur Sa‘dulla, Ilyos Muslim, Iqbol Mirzo, Ulug‘bek Hamdamlarning shu haqdagi she‘rlari misolida ham kuzatish mumkin. Aslida xalqning boychechak haqidagi qo‘shiqlarida boychechak faqat erta bahorda ochiladigan gulgina emas, balki bola va bolalikning umumlashma darajasiga ko‘tarilgan ramziy obrazi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ammo shoirlar poetik yangilanish yasab, o‘z sevgan yorini erta bahorning ilk guli timsolida ko‘rsatadi.

<sup>16</sup> Жўраев М., Ўраева Д. Ўзбек мифологияси. Дарслик. – Т.: Наврўз, 2019. – Б.190-191.

<sup>17</sup> Миртемир. Асарлар. 3 жилдлик. 1-жилд. – Т.: Ф.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – Б.52.

<sup>18</sup> Мирзо Бобоқанд. Кўргулик. Шеърлар. – Тошкент: Сахҳоф нашриёти, 2024. – Б.72.

<sup>19</sup> Сирожиддин Саййид. Ватан абадий. – Т.: “Шарк” нашриёти-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2001. – Б.69.

Zulfiya o‘z she‘rlaridan birini bahor hodisasi “kamalak” nomi bilan atagan<sup>20</sup>. Aslida xalq orasida ham kamalikka atalgan qo‘shiqlar saqlangan. Ular “Yalinchoqlar” deb ko‘rsatiladi va ikki satrdan oshmaydi. Zulfiyaning “Kamalak” nomli she‘rining hajmi esa anchagina katta. Shoir kamalakni ufqlarni tutashtiruvchi ko‘prikka o‘xshatgan. Kamalak yetti rangda namoyon bo‘lishini hisobga olib, uning yetti rangda yetmish xil jiloga egaligini ta‘kidlagan.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli *“To‘y marosimi qo‘shiqlari stilizatsiyasi”* deb nomlangan. O‘zbek shoirlari ijodida to‘y marosimi folkloriga aloqador “yor-yor”, “kelin salom”, “kelin o‘tirsin” va hokazo kabi rang-barang janrdagi qo‘shiqlarining janr va ohang stilizatsiyasi ko‘p uchrab turadi. Bular nikoh to‘yi qo‘shiqlaridir.

Shoir Razzoq Abdurashidning “Yor-yor” sarlavhali she‘ri<sup>21</sup> bahor faslining kirib kelishini olqishlash mazmunida yaratilgan. Bu she‘r garchi xalq yor-yori kabi kelin uzatish qo‘shig‘i bo‘lmasa-da, shoir uning dastlabki har satrida hamda undan keyingi misralar aro “yor-yor” takrorini qo‘llagan. Kelinchak yaxshi niyatlar va yuksak orzular og‘ushida yangi bir xonadondan baxt izlab kirib kelayotgani yanglig‘ muallif ham yangi kunga yangi orzular bilan qadam tashlayotganini anglatmoqda. She‘rning markazida “qutlug‘ qadam” tushunchasi yotadi.

Muhammad Yusuf she‘rlari orasida ham “Yor-yor” sarlavhali alohida bir she‘r mavjud. Bu she‘r ishqiy mazmundagi lirik she‘rlar kabi oshiqning hasrat-nolasi bilan boshlangan. Unda xalq yor-yorlaridan olingan satrlar analitik folklorizm sifatida she‘r matniga singdirilgan. Bu band xalq yor-yorlari kabi “hay-hay o‘lan, jon o‘lan” misrasi bilan boshlangan. Shundan keyingi juft misralar qofiyasidan so‘ng “yor-yor” takrori keltirilgan.

Buxorolik shoir Omon Abdullaning yor-yor stilizatsiyasi asosida yaratilgan she‘ri “Buxoro yor-yori” nomi bilan yuritilgan<sup>22</sup>. Unda xalq yor-yorlariga o‘xshash bir necha jihatlar borligi kuzatiladi. Bular: 1. Har juftlikdan so‘ng “yor-yor” takrorining qofiyadan so‘ng kelishi. 2. “Yor-yor” to‘rtliklarini xalq yor-yorlaridagi kabi “Hay-hay o‘lan, jon o‘lan” takrorining o‘zaro bog‘layotgani. 3. Kuyov tomonidan kelinga qaratilgan g‘amxo‘rlik, rashk mazmunidagi satrlarning ifodalanishi. 4. Kelinga olqish, yaxshi tilak ifoda topgan satrlarning keltirilishi. Ammo she‘rning ayrim misralari “yor-yor” ohangiga solinmagan.

Ayrim she‘rlarni to‘liq “yor-yor” stilizatsiyasiga asoslangan deb bo‘lmaydi. Shunday she‘rlardan biri Gulchehra Jo‘rayevaning “Qiz uzatdik yor-yor” she‘ridir. Yana Gulchehra Jo‘rayevaning “Kelin salom” sarlavhali she‘ri jami o‘n ikki misra – uchta to‘rt misralik band ko‘rinishida yaratilgan bo‘lib, bu bandlarni “Onamga kelin salom” satri o‘zaro bog‘lab kelgan. Aslida kelin yuz ochdi marosimidan keyin, ushbu marosimga yorug‘ yuz bilan kelgan onasiga ham alohida salom qilgan. Lekin hozirgi an‘analarda ularning poetik matnlari deyarli saqlanmagan. Shoir Gulchehra Jo‘rayevaning “Kelin salom” she‘ri shu an‘anaga hamohang yaratilgani bilan ahamiyatlidir. She‘r mazmunida ham o‘zining, ham onasining yuzini yorug‘ qilgan qizning hayajoni va hayosi tasvirga olingan.

<sup>20</sup> Zulfiya. Bahor keldi seni so‘roqlab: she‘rlar / Zulfiya Isroilova. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 192 b.

<sup>21</sup> Раззоқ Абдурашид. Эҳтирос. Лирика. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1979. – 129 б.

<sup>22</sup> Омон Абдулла. Ўтаётган кун. Шеърлар ва балладалар. – Бухоро: “Бухоро” нашриёти. – 1995. – Б.18.

Anvar Obidjon salomnomalardan stilizatsion uslubda foydalanib, ramziy obrazlar asosida bolalar uchun “Bulbulning salomnomalari” nomli g‘azal shaklidagi she’rini yaratgan. Shoir unda jonzotlarning o‘ziga xos tomonlari bilan tanishtirish uchun kelinsalom uslubidan ijodiy foydalangan. Chunki kelinsalomlarda ham kelimga u tushib kelgan xonadon a’zolari, ularga yaqin insonlarning xarakter-xususiyatlari birma-bir tanishtiriladi. Mana shu “tanishtiruv” vazifasi uni stilizatsiya qilishga zamin yaratgan.

O‘zbek xalq to‘y marosimlari tizimida “Kelin keldi” marosimi alohida o‘ringa ega. Albatta, bu marosimning o‘ziga xos she’riy aytimlari ham mavjud. Gulchehra Jo‘rayeva o‘z she’rlari tizimida mana shunday qo‘shiqlarni stilizatsiyalashtirib, ularga ijodiy yondoshib, xalqona she’rlar yaratgan. Shoiraning bu she’ri “kelin tushdi”, “kelin keldi”, “kelin salom”, “kelin o‘tirsin” kabi bir necha o‘zbek xalq udumlarining mazmunini yaxlitlashtirib yaratilgan.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi “**Yig‘i va yo‘qlovlar stilizatsiyasi**” deb nomlangan bo‘lib, to‘rt fasldan iborat. Uning ilk fasli “**Yig‘i va yo‘qlovlar stilizatsiya asosida yaratilgan she’rlarning janriy ko‘rinishlari**” deb ataladi. O‘zbek adabiyotida marsiyanavislik ko‘pdan mavjud. Bundan anglashiladiki, marsiyalarni yaratilgan davriga qarab ikkiga: a) mumtoz marsiyalarga; b) zamonaviy marsiyalarga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Hozirgi davr adabiyotida marsiyalarning shakliy ko‘rinishlari ayrim o‘zgarishlarga uchraganini, mazmunida ijtimoiy ruh ortganini ta’kidlash mumkin. Marsiya, odatda, el ichida taniqli, mashhur kishining o‘limi munosabati bilan yaratiladi. Barcha marhumlarga ham marsiya bitilavermaydi. Biroq, har bir marhumga bag‘ishlab xalq yig‘i va yo‘qlovlari kuylanaveradi. Ularni kuylash uchun marhumning ijtimoiy mavqeiga e’tibor berilmaydi. Zamonaviy she’riyatda yig‘i-yo‘qlovlar stilizatsiyasi asosida yaratilgan she’rlarni quyidagi mavzuiy ko‘rinishlarga ajratish mumkin, deb hisoblaymiz:

**1. Jadid-vatanparlar, jadid ijodkorlar haqidagi marsiya she’rlar** alohida turkumni tashkil etadi. Bunga Muhammad Yusufning “Fayzulla Xo‘jayev marsiyasi”, “Yo‘qlov” she’rini misol qilib keltirish mumkin. Shoir “Yo‘qlov” she’rini xalq yig‘ilari ohangida “Oh oltin bobom-a, voh tillo bobom” degan nola bilan boshlaydi. Undan so‘ng qatag‘on qurbonlari bo‘lgan Usmon Nosir, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Akmal Ikromov, Fayzullo Xo‘jayevlar nomini sanaydi<sup>23</sup>.

**2. Surgun qilingan vatandoshlarimiz haqidagi yo‘qlovlar.** Bunga Eshqobil Shukurning “Mengim Momoning yo‘qlovi” she’ri<sup>24</sup> yorqin misol bo‘la oladi. U she’r sarlavhasida garchi “yo‘qlov” deb ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, aslida yig‘i stilizatsiyasiga asoslangani kuzatiladi. Chunki she’rda yig‘ini ifodalovchi “Uvv!.. Uvv!!!” undovidan hamda faryodni anglatuvchi “Voy, Mengim-a, sho‘r Mengim” jumlasini bir necha o‘rinda foydalanilgani buni oydinlashtirib turibdi. Yana shoir she’r boshlanishida keltirgan “Inqilob davrida Vatandan surgun qilingan, xorijda o‘z-o‘ziga yo‘qlov aytib, dunyodan o‘tgan “Mengim momoning giryasi” degan izohda ham yig‘i ma’nosini anglatuvchi “giryasi” so‘zining qo‘llangani orqali uning yig‘i stilizatsiyasiga asoslangani o‘z dalilini topadi.

<sup>23</sup>Muhammad Yusuf. Quyoshga qarab oqqan suv. Saylanma: she’rlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – B. 170.

<sup>24</sup>Эшқобил Шукур. Яшил кушлар. – Т.: Ёзувчи, 1995. – Б.37.

**2. Jangchi-vatanparvarlar xotirasiga bag'ishlangan xotira-she'rlar.** Erkin Vohidovning “Boqiy xotira” she'rida Ikkinchi Jahon urushiga ketib qaytmagan o'zbek o'g'lonlari ruhi xotirlangan. Uning yaratilishida shoir xalqning Navro'z yo'qlovlari mavzmunidan foydalangan. Sirojiddin Sayyidning “Sharaf dostoni” she'ri ham janglarda o'lgan Vatan o'g'lonlari xotirasiga bag'ishlangan.

Yig'i-yo'qlovlarning zamonaviy she'riyatda turli janrlarda yozilganini ko'rish mumkin. L.Sharipova ularning hozirgi o'zbek she'riyatida xalq yig'i va yo'qlovlari xarakterida yaratilgan lirik asarlar “marsiya”, “yo'qlov”, “xotira”, “...xotirasiga”, “bag'ishlov”, “giryа”, “qo'msash” va hokazo kabi nomlar bilan yuritilishini ta'kidlaydi<sup>25</sup>. Biz esa ularni quyidagicha tasniflab ko'rsatamiz:

**1. Marsiya-ballada.** Omon Abdulla “Ona marsiyasi” nomi bilan ballada yozgan<sup>26</sup>. **2. Bag'ishlovlar.** Bu xil she'rlarda shoir dunyodan o'tgan biror yaqin kishisining porloq xotirasini yod etiladi. Bunga Muhammad Yusufning “Bag'ishlov” she'rini misol keltirish mumkin<sup>27</sup>. U Sharof Rashidovning ruhiga bag'ishlangan. Lekin shoir bu she'rning kimga bag'ishlanganligini aslida sir saqlaydi. Abdulla Oripovning ham “Sharof Rashidov xotirasiga” degan she'ri mavjud. **3. Xotira-she'r.** Bunday she'rlar ma'lum bir shoirning yaqin do'stini, hamkasbini xotirlash, u bilan bog'liq shirin xotiralarni yod olib, buni badiiy talqin qilishi natijasida maydonga keladi. Bunga Abdulla Oripovning “Do'stim Murod Hamroyev xotirasiga” she'rini misol qilish mumkin. Shuningdek, Yo'ldosh Sulaymoning “Qani endi” nomli she'ri O'zbekiston xalq hofizi Murodjon Ahmedov xotirasiga bag'ishlangani bilan e'tiborni tortadi. Xotira she'rlarning badiiy shakli har xil. Biri kichik, biri katta. Biri barmoq vaznida yozilgan bo'lsa, biri sochmada bitilgan yoki erkin vaznda: biri bor-yo'g'i to'rt qator bo'lsa, yana boshqasi, sakkiz, o'n olti va hokazo bandlardan iborat. Lekin qaysi shaklda yaratilgan bo'lmasin, ularda yagona g'oya marhum ruhini e'zozlash, qadrlash niyati ustundir. **4. Marsiya.** Ayrim shoirlar o'lgan kishi haqidagi she'rini marsiya deb ataydi. Masalan, Sirojiddin Sayyid “Marsiya” deb nomlagan she'rida dafn marosimiga oid azaliy bir odatni yodga olib o'tgan. Aniqrog'i, unda o'lganlarga bag'ishlab marsiya aytish yoki yozishdan tashqari yana boshqa udumlar: cho'kib o'lgan jangchilarning ruhini yod aylab, dengizga gulchambarlar oqizish yoki yonib ketgan uchuvchilarning xokini oq gullar bilan o'rash haqida so'z yuritilgan. Ayrim marsiya she'rlar kimning nomiga bag'ishlangani aniq ko'rsatilgan. Rauf Parfining “Abdullajon marsiyasi”, Usmon Qo'chqorning “Lazizjon marsiyasi”, Eshqobil Shukurning “Norboy aka marsiyasi” nomli she'rlari shular jumlasidandir. Marsiya she'rlar orasida ayrim badiiy asarlarning o'lim topgan qahramonlari nomiga bag'ishlangan namunalari ham uchraydi. Halima Xudoyberdiyevaning “Kumushning o'limi”, Halima Axmedovaning “Oyto'ldi marsiyasi (XI asr)” kabi.

Sadriddin Salim Buxoriy yozgan marsiyalar yanada o'ziga xos. Shoir bitgan marsiyalarning bari insonlarga emas, jonsiz narsalarga ham bag'ishlangan. Jumladan, uning “Yo'qolgan kitoblarga marsiya”, “Ko'milgan hovuzlarga marsiya” kabi she'rlari bunga dalil bo'la oladi. Agar Sadriddin Salim Buxoriyning yig'i va

<sup>25</sup> Шарипова Л. 80-90-йиллар ўзбек шеърлятида фольклоризмлар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – Б.89.

<sup>26</sup> Омон Абдулла. Ўтаётган кун. Шеърлар ва балладалар. – Бухоро: “Бухоро” нашриёти. – 1995. – Б.50.

<sup>27</sup> Муҳаммад Юсуф. Сайланма. – Т.: Шарк, 2004. – Б.60.

yo‘qlovlar stilizatsiyasi asosida yaratilgan she‘rlari nomiga diqqat qilinsa, ularning bir necha xil nomlar bilan berilganligiga guvoh bo‘lish mumkin: **A. Marsiya.** Shoir buxorolik mashhur rejissor va aktyor Azizjon Mahmudovga bag‘ishlagan she‘rining sarlavhsini birgina “marsiya” degan so‘z bilan atagan. **B. Yodlash.** Shoirning mazkur she‘ri onaning ruhini yod etishga qaratilgan. Bu she‘rning mazmunini olti mazmuniy qutbga bo‘lib o‘rganish mumkin: a) onaning go‘zal portreti chizgisi; b) onaning shirinsuxanligi ta‘rifi; v) ishchanligi, bilimdonligi va kamtarligi tavsifi; g) oilaparvarligi; d) bolalariga mehribonligi; ye) hayot zarbalari oldidagi sabr-bardoshlilik; yo) el ichidagi obro‘si. Shoir onasi haqidagi shu holatlarni yodga olish orqali o‘zi uchun bu “Go‘zal Xotiralar – nuramas Vatan” hamda “Pok tutar Dunyoning qutblarini!” degan xulosaga keladi. **S. Giry.** Sadridin Salim Buxoriyning “Giry” sarlavhasi bilan berilgan she‘ri azadorlikka bog‘liq holatda yozilgan. **D. Sadridin Salim Buxoriyning “Yevropada shahid bo‘lgan askar so‘zi”** she‘rida ruhning kengliklar aro kezayotgan bezovta nolalari, arvoq-kapalak holati, uning o‘z yurti – O‘zbekiston quchog‘ida gul hididay anqib chiqishni xohlashi bayon etilgan.

**5. Yig‘i.** Halima Xudoyberdiyevaning “Yig‘i” deb nomlangan she‘rida shoira o‘z yig‘isining so‘layotgan va o‘layotgan bolalar uchun ekanini aytadi. Yo‘ldosh Sulaymonning “Yig‘i” sarlavhali she‘ri esa biror kishining o‘limiga bag‘ishlangan emas. Unda yig‘ilashning foydali tomonlari, ko‘ngilni bo‘shatishga yordam berishi xususida fikr yuritilgan<sup>28</sup>. **6. Yo‘qlov.** Bunga Halima Xudoyberdiyevaning o‘rtog‘i Halima Hasanova xotirasiga bag‘ishlab yaratgan “Yo‘qlov” marsiyasini, Eshqobil Shukurning “Yo‘qlov” sarlavhasi bilan yo‘qolgan kitob, ko‘milgan hovuz va “jonning ibodati”ni yo‘qlab yozilgan she‘rini misol qilish mumkin. **7. Elegiya.** G‘arbda marsiya tipidagi she‘rlar “Elegiya” deb yuritiladi. Ulug‘bek Hamdam ham bir she‘rini shu nom bilan e‘lon qilgan. **8. Aytim.** Ba‘zi shoirlar marsiya ko‘rinishidagi she‘rini “Aytim” deb ham atagan. Bunga O. Hojiyevaning Nozik Qo‘ziyevani eslab deb izohlangan “Aytim” nomli she‘rini misol qilish mumkin.

Sadridin Salim Buxoriyning “Vasiyat” she‘ri ostiga shoir “Qodir aka Toshev xotirasiga bag‘ishlayman” deb yozib qo‘ygan. Sarlavhadagi “vasiyat” so‘zi uning marhum nomiga bog‘lanishidan dalolat berib turadi. Chunki o‘layotgan odam imkon boricha yaqinlariga o‘z dilidagi gaplarini vasiyat qilib aytadi. Shu sababli ushbu she‘r marhum tilidan berilgan.

Sotim Avaz qalamiga mansub “Qabr toshidagi yozuv” she‘ri ham qadimiy an‘analar bilan tutashligi jihatidan e‘tiborga molik. Chunki marhumlar uchun qabr toshlar qo‘yish va unga dil bitiklar yozish qadimiy an‘analardan sanaladi.

O‘zbek shoirlari ijodida boshqa yurt ijodkorlari yoki davlat arboblari haqida yozilgan xotira she‘rlar ham uchraydi. Bunga Usmon Azimning “Qozoq shoiri Kenshilik Mirzabekov xotirasiga marsiya”, Qutlibeka Rahimboyevaning “Indira Gandi qayg‘usida”, Rauf Parfining “Thakurning oxirgi she‘ri” kabilarni misol qilish mumkin.

Odatda, “so‘nggi” so‘zining qo‘llanishi yig‘i va yo‘qlovlar stilizatsiyasiga asoslangan she‘rlarda alohida o‘rin tutib, sarlavhaga ko‘tarilgani namoyon bo‘ladi: Usmon Azimning “Mo‘min Mirzoning so‘nggi qo‘shig‘i”, “Usmon Nosirning

<sup>28</sup> Ўйлош Сулаймон. Дардим сифмас дунёга: Шеърлар. – Т.: Ёзувчи, 1992. – Б.21.

so‘nggi tushi”, “Oybekning so‘nggi she‘ri”, Halima Xudoyberdiyevaning “Nodirayi Davronning so‘nggi she‘ri” kabilar buning dalilidir.

To‘rtinchi bobning ikkinchi fasli **“Yozma yig‘i va yo‘qlovlarning qarindoshlikka ko‘ra mavzuiy turkumlanishi”** deb atalgan. Yaqin qarindoshlarga atalgan xotira she‘rlar ham mavjud. Ularni yaqin qarindoshlarga atab kuylangan yig‘i va yo‘qlovlarga nisbatan stilizatsiya qilingan she‘rlar qatoriga kiritish mumkin. Ayniqsa, ko‘pchilik shoirlar ijodida **ona xotirasini ulug‘lovchi she‘rlar** alohida o‘rin tutadi. Bunga Rauf Parfining “U dunyoga onamga maktub”, Sadridin Salim Buxoriy o‘zining “Onamni sog‘inib”, Omon Abdullaning “Onajonim edi” she‘rlarini misol qilish mumkin.

Xalq ijodida	Sadridin Salim Buxoriyda
Shamol bo‘lib kelarsizmi, Ko‘kragimni ochib chiqsam? Yomg‘ir bo‘lib yog‘arsizmi, Boshginamni ochib chiqsam?	Shamol silar boshimni, yomg‘ir to‘kar yoshimni, Shamolu yomg‘ir bo‘lib tashrif etdingmi, ona?

Dilorom Karimova ona xotirasiga bag‘ishlangan bir necha she‘rlar yozgan. Uning shunday she‘rlaridan biri “Yo‘qlov” sarlavhasiga ega. Uning bu she‘ri “Onamni qo‘msab” (2007) hamda “Sabr sohili” (2018) nomli turli yillarda chop etilgan to‘plamlariga kiritilgan. Qiziq tomoni shundaki, ular xuddi motam yig‘i va yo‘qlov qo‘shiqdari variant hosil qilgani kabi variantlilik kasb etgan. Dilorom Karimovaning shu yo‘nalishda yana “Onamga marsiya”, “Yig‘lamayman endi, onajon!”, “Onajonim – Makkam, Madinam” she‘rlari mavjud. Onani Makka, Madinaga tenglashtirish xalq yo‘qlov qo‘shiqlarida ham uchraydi. Jumladan:

Xalqda	D.Karimova she‘rida
Validam, Makkam, Madinam, mehribonim qaydasan? Bu o‘limning dastidan, ey do‘stlar, hayrondurman.	Onajon, Makkam Madinamsan desam, kamday bo‘lur.

Xalq yig‘i va yo‘qlovlari kabi yozma adabiyotda ham ota o‘limi bilan bog‘liq holda yaratilgan marsiya, xotira-she‘rlarlar mavjud. Bunga Halima Xudoyberdiyevaning “Otam xotirasiga”, “Oq olmalar pishganda” singari she‘rlarini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Shu o‘rinda yana Ulug‘bek Hamdamning akasi haqida yozgan ikki xotira she‘rini yodga olish mumkin.

“Akam Oybek xotirasiga” she‘ri	“Akam xotirasiga” she‘ri
--------------------------------	--------------------------

She‘rlarning bittasida shoir akasining ismi Oybek ekanini ochiq ko‘rsatgan bo‘lsa, ikkinchisida uning ismini aytmagan. E‘tiborli jihati shundaki, she‘rlarning har ikkalasida ham “qor” so‘zidan foydalanilgan. Bizningcha, unda qor vaqt tushunchasini ham anglatib kelgan.

Ma‘lumki, yig‘i va yo‘qlovlar insonlarning yosh mansubiyatiga qarab ham farqlanadi. Bunday farqlanishni yozma ijodda ham kuzatish mumkin. Masalan, bir necha shoirlar ijodida **yosh bolalar o‘limi haqida yozilgan marsiyalarni** kuzatish mumkin. Bunga shoir Ulug‘bek Hamdamning norasida o‘g‘li o‘limi sababli yozgan “O‘g‘lim Muhammad xotirasiga” she‘rini misol keltirish mumkin. Bu she‘r **otaning o‘g‘liga (farzandiga) yig‘i-yo‘qlovini** ko‘rsatadi

Eshqobil Shukurning “O‘zbek otaning 43-yildagi faryodlari” she‘rida o‘tgan asrning 40-yillarida nemislar bilan bo‘lgan bosqinchilik urushiga ketib, shahid bo‘lgan o‘g‘il haqida otaning yig‘isi ifoda etilgan.

Xalq yig‘i va yo‘qlovlari orasida **“jigarim” takroriga asoslanuvchi jiyan o‘limi munosabati bilan kuylanadigan qo‘shiqlar** ham alohida silsilani tashkil etadi. Xuddi shunday yo‘nalishda yozilgan Oydin Hojiyevaning “Jiyanim Fotimani eslab”, Muhammad Yusufning “Ilyos” kabi she‘rlari bu jihatdan e‘tiborni tortadi. Ularda bu dunyoni erta tark etgan qizaloq va bolakaylar haqida so‘z yuritilgan.

Xalq yig‘i-yo‘qlovlari orasida eri vafoti etgan beva ayollar yig‘isi ham o‘ziga xos tomonlari bilan alohida turkumni tashkil etadi<sup>29</sup>. Bu yo‘nalishda Zulfiyaning turmush o‘rtog‘i vafotidan keyin yozgan “Bahor keldi seni so‘roqlab”, “Haykal”, “Sensiz” kabi she‘rlari e‘tiborni tortadi.

To‘rtinchi bobning uchinchi fasli **“Shoir va yozuvchilar xotirasiga bag‘ishlangan she‘rlar”** deb atalgan. Hozirgi marsiya she‘rlarni kimga bag‘ishlanganiga qarab bir necha mavzuiy guruhlarga ajratish mumkin. Shu guruhlardan birini **shoir va yozuvchilar xotirasiga bag‘ishlangan yo‘qlov-she‘rlar** tashkil qiladi. Ular orqali nafaqat inson qadri, balki “Zar qadrini zargar bilar” deganlaridek, aynan shoirlarning so‘z ustalarini qadrlash, ulug‘lash, aziz tutish hislari anglanadi. Shoirlar o‘limi bilan bog‘liq marsiyalar yozish an‘anasi qadimiy an‘analardan hisoblanadi. Xususan, uning xalq ohanglariga yaqin vazndagi namunalari XX asrning 20-yillarida ko‘paydi. Shoirlarni xotirlab yaratilgan marsiya she‘rlarni, bizningcha, uchga bo‘lib o‘rganish lozim: 1. O‘zbek mumtoz shoirlari xotirasini yod etishga oid she‘rlar. Bunga G‘afur G‘ulomning “Hazrati Navoiy qabri ustida” she‘ri misol bo‘la oladi. 2. Jadid shoirlar xotirasini e‘zozlovchi she‘rlar: Bunga Cho‘lponning “Mahmud Xo‘ja (Behbudiy) xotirasi” marsiyasini misol keltirish mumkin. Behbudiy xotirasiga bag‘ishlab yana Sadridin Ayniy va Abdurauf Fitrat kabi buxorolik ijodkorlar yozgan marsiya-she‘rlar ham mavjud. 3. Zamonaviy ijodkorlar xotirasiga bag‘ishlangan she‘rlar. Bunday she‘rlar juda ko‘p. Xususan, Oybek, G‘afur G‘ulom haqida bir emas, bir necha ijodkor yaratgan xotira she‘rlar borligi ko‘rinadi. Bu esa she‘riyatimizda bir ijodkorga bag‘ishlangan bir necha shoirning har xil xotira-she‘rlari yaratilganidan darak beradi.

№	Shoirlar nomi	She‘r nomi	O‘ziga xosligi
1.	Ramz Bobojon	“Ey o‘lim. Oybek xotirasiga”	O‘lim yozg‘irilgan. U Oybekni olib ketgani qoralangan.
2.	Muhammad Ali	“Oybek vafotiga”	Shoir zamin uzra bulutli karvonga qiyoslangan.
3.	Rauf Parfi	“Oybek xotirasiga”	Oybekning adabiyotdagi o‘rnini oydin buloqqa va falakdagi oyga tenglashtirgan.
4.	Oydin Hojiyeva	“Oybek”	Ijodkor yaratgan asarlar orqali uni xotirlagan.

<sup>29</sup> Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Тошкент: Фан, 2004. – 120 б.

O‘zbek she‘riyatida xotirasiga eng ko‘p marsiya bitilgan shoirlardan yana biri G‘afur G‘ulomdir. Buni dastlab Maqsud Shayxzoda boshlab bergan. U G‘afur G‘ulom o‘limi munosabati bilan marsiya yozgan. Vosit Sa‘dulla ham “Eslash” nomli she‘rini (Ustoz G‘afur G‘ulom xotirasiga) bag‘ishlaganini qayd etgan. Abduvali Qutbiddinning “Xo‘rsiniqlar...” she‘ri ham G‘afur G‘ulom xotirasiga bag‘ishlangan. Shuningdek, Halima Xudoyberdiyevaning “Oqar daryo” she‘ri ham bevosita shoir G‘afur G‘ulom xotirasiga bag‘ishlangan.

Muhammad Yusuf she‘rlaridan birini “Mirtemir xotirasiga” deb atab, bevosita unga bag‘ishlaganini ko‘rish mumkin. Zulfiyaning “Bir dasta gul keltirdi qizlar” she‘ri ijodkor Oydin Sobirova xotirasiga bag‘ishlangani muallifning bevosita o‘zi tomonidan qayd qilingan.

“Armon” so‘zi ko‘pincha dunyoni tark etganlarga nisbatan qo‘llanishi ma‘lum. Aksaran hollarda u hayotdan erta ko‘z yumganlarga nisbatan qo‘llanishi kuzatiladi. Shuningdek, Razzoq Abdurashidning “Armon” sarlavhali she‘ri uning ostida qavs ichida ko‘rsatib o‘tilganiday Xayriddin Saloh xotirasiga bag‘ishlangan bo‘lib, bu shoirning erta vafot etgani, qalbiga jo etgan orzulari ushalmay, uning o‘ziga ham, ortida qolganlarga ham armon bo‘lib qolganini bilamiz.

Ulug‘bek Hamdam “Ustoz Abdulla Oripovga” degan xotira-yo‘qlov she‘r yozgan bo‘lsa, Abdulla Oripovning o‘zi “Shoir Chorijon marsiyasi”ni bitgan.

Toshpo‘lat Ahmad va Omon Abdullalar ijodida buxorolik bog‘bon-shoir Sharif Nurxon xotirasiga bag‘ishlangan marsiyalar uchraydi. Toshpo‘lat Ahmad “Zanjirband she‘r. (Ayniy xotirasiga)” she‘rini Sadridin Ayniy haqida bitgan. Sadridin Salim Buxoriyning ijodida “Toshpo‘lat Hamid xotirasiga” yozilgan she‘r uchraydi. Toshpo‘lat Ahmadning “Hayotga qaytish” she‘ri ham shu ijodkor xotirasiga bag‘ishlangan.

G.Asqarovaning “Ustoz Muhammad Yusuf xotirasiga” degan izoh bilan yozilgan “Vido aytimi” she‘ri nomidagi “vido” so‘zi o‘lgan kishi bilan dafn oldi xayrlashish ma‘nosini anglatadi.

Marsiyalar jins nuqtayi nazaridan ikkiga bo‘linishi ko‘rinadi. 1.Erkak ijodkorlar haqidagi marsiya-xotiralar. Masalan, M.Yusufning “Lolaqizg‘aldoq” she‘ri Shavkat Rahmon xotirasiga bag‘ishlangan bo‘lib, yo‘qlov xarakteridagi marsiya sifatida namoyon bo‘ladi. 2. Ayol ijodkorlar haqidagi marsiya-xotiralar. Oydin Hojiyevaning “Saidaxonimni eslab...” she‘ri Saida Zunnunova haqida bo‘lib, unda shoira suratdan boqib turgan farishta Ayol sifatida ta‘riflangan. Yana O.Hojiyevaning shoira va folklorshunos olimi “Yodnoma” sarlavhali she‘ri “Muzayyana Alaviya xotirasiga” deb atalgan.

To‘rtinchi bobning to‘rtinchi fasli “*Afg‘onistonda shahid bo‘lgan o‘zbek yigitlari haqidagi she‘rlar*” deb atalgan. Zamonaviy she‘riyatdagi marsiyalar orasida XX asrning 70-yillari oxiri va 90-yillar boshida Afg‘onistonda kechgan urushga majburiy harbiy xizmatini o‘tash uchun yuborilgan o‘zbek yigitlaridan ayrimlari halok bo‘ldiki, bunday shahid ketgan yigitlar xotirasiga bag‘ishlab bir qancha shoirlar marsiyalar yozdilar. Shunday marsiyalardan biri buxorolik shoir Toshpo‘lat Ahmadning “Risolat opaning nidolari” she‘ri bo‘lib, shu sarlavhadan so‘ng shoir qavs ichida “(Marsiya)” izohini keltirgan. Demak, bunda shoir “nido” so‘zi bilan “yig‘i” so‘ziga ishora qilgan. Shundan so‘ng she‘rda “Afg‘onistonda

halok bo'lgan Zafar va barcha shahid ukalarim xotirasiga bag'ishlayman" degan izoh ham keltirilgan.

Muhammad Yusuf o'tgan asrning ikkinchi yarmida Afg'onistonda yuz bergan siyosiy vaziyat tufayli, u yerda boshlangan urushga nohaq jalb etilgan va begunoh qurbon bo'lgan o'zbek o'g'lonlarining o'limiga achinib yozgan she'rini "marsiya" deb atagan. Uning "Armon" nomli she'ri ham uning epigrafi sifatida keltirilgan "Afg'onistonda halok bo'lgan o'zbek o'g'lonlari xotirasiga" izohidan ma'lum bo'ladi. Unda Afg'oniston nomi Hindukush nomi bilan ifoda etilgan. Halima Xudoyberdiyevaning "Hindiqushdan nola keldi" she'ri ham Afg'onistonda bevaqt halok bo'lgan baynalmilal-jangchi yigitlar xotirasiga bag'ishlangan.

Afg'on urushi voqealari, u yerda shahid ketgan o'g'lonlarning pok va chirqiragan ruhi hech kimsani befarq qoldirmasdi. Shuning uchun o'sha davrning o'zidayoq ularga bag'ishlab xalq qo'shiqlar yaratdi. Bu qo'shiqlarning ayrim namunalari yozib olinib, e'lon qilindi<sup>30</sup>. Demak, bu mavzuda folklor va yozma she'riyatda baravar ijod qilingan.

Buxorolik shoir Omon Abdullaning "Afg'onda shahid ketgan askar so'zi" she'ri bevosita marhum yigit tilidan yozilganligi bilan boshqa shu mazmunda bitilgan ash'orlardan farqlanib turadi. Chunki, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, odatda, bunday she'rlarning aksariyati o'g'lini Afg'on urushida yo'qotgan dilxun onalar tilidan yozilgan bo'lsa, bu she'r bevosita afg'onda shahid bo'lgan armonli yigit tilidan qog'ozga tushirilgan.

Oydin Hojiyeva Afg'onistonda o'z harbiy xizmatini o'tashga majburlangan va u yerda halok bo'lgan yigitlar haqidagi she'rini "Ona aytur..." deb nomlagan.

Dissertatsiyaning beshinchi bobi "**O'zbek adabiyotida she'riy topishmoq, tez aytish va olqishlar o'rni**" deb nomlangan bo'lib, uch fasldan iborat. Uning ilk fasli "**She'riy adabiy topishmoqlar**" deb ataladi. O'zbek adabiyotida folklorning topishmoq, tez aytish, olqish kabi kichik hajmli an'anaviy janrlar asosida ularning adabiy ko'rinishlari yaratilgan. Topishmoq aslida folklor janri, ammo yozma adabiyotda ham uning stilizatsiyasi muhim poetik hodisalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Xalq topishmoqlaridan yozma adabiyotda ijodiy foydalanish an'anasi uzoq tarixga ega. O'zbek she'riyatida xalq topishmoqlariga xos janriy belgilarni saqlash yoki ularga qayta ishlov berish asosida adabiy topishmoqlar yaratish ijodiy jarayoni o'tgan asrning ikkinchi yarim yilligidan boshlab taraqqiy etdi. Shoirlar xalq topishmoqlarining ifoda shakli va uslubidan, unga xos tasvir vositalaridan, hatto tayyor metaforik birikmalaridan ijodiy foydalanib, adabiy topishmoqlar yaratdilar. Ularni ikkiga bo'lib o'rganishga to'g'ri keladi: 1. She'riy topishmoqlar. Bular ham folklorida, ham yozma she'riyatda uchraydi. 2. Topishmoq-she'rlar. Ular faqat yozma she'riyatda kuzatiladi.

She'r topishmoqlarning band tuzilishi turlicha namoyon bo'ladi. Ular ikkilikdan tortib, o'nlik shaklgacha bo'lishi kuzatiladi. Yaratilishida bunday band ko'rinishlaridan tashqari, vazn, turoq, qofiya kabilarga ham jiddiy e'tibor qilingan. Mavzusiga ko'ra esa o'tmish buyumlari yoki zamonaviy narsalar obrazini qamrab oladi. Hozirgi zamonaviy o'zbek nazmida yaratilgan she'riy topishmoqlar

<sup>30</sup> Ўраева Д. Оналар кўксидан отилган армон // "Тафаккур". – 1999. – 3-сон. – Б.115-116.

kuzatilganda, Ulug‘bek Hamdamning “Topishmoq” she‘ri borligi e‘tiborimizni tortdi. Shoir unga “Topishmoq” deb sarlavha bergan va unda bahor fasli hodisalari haqida fikr yuritgan<sup>31</sup>. She‘rda bahor fasli qizga o‘xshatilgan. Oftob g‘olib kelib, olamning nurga to‘lganligining ta‘kidlanishi Hamal, Naro‘z boshlanganiga ishora. Tevarakka binafsha atrining sochilgani ham so‘lim bahordan darak. Xullas, shular asosida she‘rda “Kim ekan u?” deganda, bahor tushunilmoqda.

Ammo shunisi ham borki, “Topishmoq” sarlavhali barcha she‘rlarni jumboq-she‘r sifatida qabul qilib bo‘lmaydi. Masalan, Muhammad Ali she‘rlarining orasida uchraydigan xuddi shunday she‘r mavjud. Shoir “Topishmoq” sarlavhasi bilan yozgan ushbu she‘r topishmoq emas. U borliqni, o‘ziga turmush o‘rtoq bo‘lishi mumkin bo‘lgan noma‘lum yorni topishmoq sifati bilan atamoqda. She‘riy ko‘rinishdagi adabiy topishmoqlar yaratish bilan G‘.G‘ulom, Q.Muhammadiy, Sh.Sa‘dulla, S.G‘afurov, P.Mo‘min, K.Turdiyeva, A.Akbar, N.Ermat, D.Rajab, Yoqub Xo‘jayev, Z.Hasanova, F.Hasanova, M.Sayfiddinova, M.Hamidova kabi shoirlar adabiy topishmoqlar xazinasini boyitdi.

Beshinchi bobning ikkinchi fasli “*Tez aytishlar stilizatsiyasi*” deb nomlangan. Tez aytish janri stilizatsiyasi borasida Q.Muhammadiy, S.G‘afurov, N.Ermat, Z.Hasanova, M.Hamidova ijod namunalari adabiy tez aytishlar poetikasining shakl, til va so‘z qo‘llash bo‘yicha muhim qirralarini o‘zida namoyon etgan. Tez aytishlar bolalar folklorida ma‘naviy o‘yin turlaridan biri bo‘lib, kichkintoylar adabiyotida ko‘p stilizatsiya qilingan janrlardan hisoblanadi. Sababi shuki, bolalar nutqini o‘stirishda, tilida talaffuz bilan bog‘liq kamchiliklar, duduqlanish holatlari bo‘lsa, ularni to‘g‘rilash va bartaraf qilishda, aqliy o‘tkirlik va sezgirlikni tarbiyalashda tez aytish o‘yinining ahamiyati katta. Xuddi shu ma‘noda ulardan o‘qituvchilar dars jarayonida ham foydalanib kelayotganlarini alohida ta‘kidlash joiz. Aslida azaldan mana shunday tarbiyaviy maqsadlarda xalq orasida ko‘plab tez aytishlar yaratilgan. Bu jarayon yozma ijodga ham ko‘chgan. O‘zbek adabiyotida birinchilardan bo‘lib bu borada faoliyat yuritgan shoir Quddus Muhammadiy bo‘lib, u tilni burro qiluvchi xalq tez aytishlarining shakli va ritmidan ijodiy foydalanib, adabiy tez aytish janrini stilizatsiya asosida shakllantirdi<sup>32</sup>.

Shoir Sobit G‘afurov ham topishmoq va tez aytishlar bolalarning aqlini peshlab, tillarini burro qilishda munosib ko‘makchi bo‘lishini inobatga olib, kichkintoylarga bag‘ishlab shu janrdagi asarlarni yaratgan. Xususan, shoir Nabijon Ermat o‘nlab tez aytish va topishmoq kitoblari bilan yanada shuhrat qozongan. Uning she‘riy ko‘rinishda ham tez aytishlari mavjud:

Nurda durlar nurlandimi?

Nurlar durda nurlandimi?

Bunday ikkilik ko‘rinishidagi she‘riy tez aytishlarni Zuhro Hasanova ijodida ham uchratish mumkin.

Beshinchi bobning uchinchi fasli “*Olqish-she‘rlar badiiyati xususida*” deb atalgan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida bolalarga ularning hayotida yuz bergan biror o‘zgarish (Masalan: ilk bor tishi yorishi, birinchi marta qadam tashlashi, sochi

<sup>31</sup> Улуғбек Ҳамдам. Эски дунё ва янги мен: Сайланма. – Т.: Янги аср авлоди, 2018. – Б.40.

<sup>32</sup> Ирисхўжаева С. Шоир ва мураббий. – Тошкент: Ўзбекистон, 1977. – Б.27.

olinishi va h.klar)da aytiladigan maxsus aytim olqishlar borligi ma'lum<sup>33</sup>. Shuningdek, o'zbek shoir va shoiralari ijodida ham shu ruhdagi she'rlar mavjudligiga guvoh bo'lish mumkin. Masalan, Gulchehra Jo'rayevaning "Xudo yor bo'lsin" she'rida farzandning ikki o'tyurak inson payvandi sifatida dunyoga kelishi "Xush kelding" deb olqishlangan. Chaqaloqning qadami nurlarga to'lishi, yurar yo'llarida xudo yor bo'lishi tilagi izhor etilgan. Bu she'r go'yo muxammas (beshlikka) o'xshatib, har bandi besh misradan iborat ko'rinishda yaratilgan. Jami 7 banddan iborat bo'lib, 35 misrani tashkil etadi. Bandlar o'zaro "Yurar yo'llaringda xudo yor bo'lsin" satri orqali bog'lanib kelgan.

Xalq olqishlari asosida yozma adabiyotda ham olqish stilizatsiyasi yuzaga kelgan bo'lib, M.Niyozova aytib o'tganidek, olqishlarni yozma adabiyotga olib kirish asarning xalqqa ruhan yaqinligi, realizmi kuchaytiradi hamda olqishlarning an'anaviyligini ta'minlaydi<sup>34</sup>.

Olqishlarning she'r bilan bog'lanishini ikki holatda kuzatish mumkin: 1. Biror she'r ichida olqishning keltirilishi. Albatta, u stilizatsion folklorizm hisoblanmaydi. Bunda uni analitik folklorizm sifatida ko'rsatish mumkin. 2. Olqish mazmunida va shaklida yaratilgan she'r. Uni olqish-she'r hisoblash mumkin, deb hisoblaymiz. Faqat bunday she'rlar shakli xalq olqishlari kabi kichik bo'lmaydi. Ularning mazmuni yaxshi niyat, ezgu tilak bildirish ruhida bo'lishiga qarab, olqish-she'r deb ko'rsatish mumkin. Masalan, Oydin Hojiyevaning "Talqin" she'ri sarlavhasidan uning olqish-she'r ekani sezilmasa-da, mazmuni va shakli aynan olqishlarga yaqinligi bilan e'tiborga molik.

